

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O‘RTA
MAXSUS TA’LIM VAZIRLIGI**

TOSHKENT MOLIYA INSTITUTI

HISOB VA AUDIT FAKULTETI

“AUDIT” KAFEDRASI

UBAYDULLOYEV G‘ANISHER NEMATILLOYEVICH

**«TOVAR-MODDIY ZAHIRALAR HISOBI VA ULARNING
AUDITI»**

5340900 -“Buxgalteriya hisobi va audit”- ta’lim yo‘nalishi bo‘yicha bakalavr
darajasini olish uchun yozilgan

BITIRUV MALAKAVIY ISHI

«HIMOYAGA RUXSAT ETILDI»

«Audit» kafedrası mudiri

_____.i.f.n. prof. Fayziyev Sh.N.

(imzosi)

«__»_____2013 y.

Ilmiy rahbar: _____K.o‘q.Yakubov M.

(imzosi)

«__»_____2013 y.

TOSHKENT - 2013

Mundarija:

KIRISH.....	3
I BOB. IQTISODIYOTNI MODERNIZATSIYALASH SHAROITIDATOVAR-MODDIYZAHIRALAR HISOB VA AUDITINING NAZARIY ASOSLARI	
1.1. Iqtisodiyotni modernizatsiyalash sharoitida tovar-moddiy zahiralarning korxona ishlab chiqarish faoliyatida tutgan o‘rni.....	7
1.2. Tovar-moddiy zahiralar hisobi va auditining maqsadi, vazifalari hamda axborot manbalari.....	13
II BOB. XO‘JALIK YURITUVCHI SUB‘EKTlarda TOVAR- MODDIY ZAHIRALARI HISOBINI YURITISHNING AMALDAGI HOLATI	
2.1. Tovar-moddiy zahiralarini korxonaga kirim qilish va baholash xususiyatlari.....	20
2.2. Tovar-moddiy zahiralar hisobini yuritish tartibi.....	26
2.3. Tovar-moddiy zahiralar hisobini takomillashtirish masalalari....	35
III BOB. TOVAR-MODDIYZAHIRALAR AUDITINI TASHKIL ETISH VA TAKOMILLASHTIRISH MASALALARI	
3.1. Tova-moddiy zahiralar auditini tashkil etish va o‘tazish tartibi...	43
3.2. Tovar-moddiy zahiralar auditini o‘tkazishda axborot texnologiyalarini qo‘llash	53
XULOSA.....	59
FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI.....	62
ILOVALAR	

KIRISH

Bitiruv malakaviy ishining dolzarbligi. Respublikamiz o'z mustaqilligini qo'lga kiritganidan boshlab yurtboshimiz tomonidan amalga oshirilayotgan iqtisodiy islohotlar mana necha yildirki o'z samarasini berib, dunyoning iqtisodiyoti rivojlangan yetakchi mamlakatlari singari kundan-kunga taraqqiy etib bormoqda. Prezidentimiz I.A.Karimov 2012-yil 14-sentabrdagi "O'zbekistonda ijtimoiy-iqtisodiy siyosatni amalga oshirishda kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning roli va ahamiyati" mavzusidagi xalqaro konferensiyaning ochilish marosimidagi nutqida so'zlaganidek: "Bugun biz o'z mustaqilligimizning dastlabki kunlaridan boshlab tanlab olgan mamlakatni isloh etish va modernizatsiya qilish, tadrijiy rivojlanish yo'li va mashhur besh tamoyil asosida barpo etiladigan fuqarolik jamiyatini shakllantirish modeli tarixan qisqa muddatda iqtisodiyotni barqaror rivojlantirishning mustahkam poydevorini yaratishni ta'minladi, jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozining salbiy oqibatlariga ishonchli ravishda qarshi turish, dunyodagi sanoqli mamlakatlari qatorida iqtisodiy va ijtimoiy rivojlanishning yuksak barqaror sur'atlariga erishish imkonini berdi, deb aytish uchun barcha asoslarimiz bor.

So'nggi 6 yil davomida mamlakatimizda yalpi ichki mahsulot yiliga 8,2 foizdan kam bo'lmagan sur'atlar bilan o'sib bormoqda. Yalpi ichki mahsulot, 2000-yil bilan solishtirganda, 2,9 barobar, sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish 2,6 barobar oshdi, iqtisodiyotga jalb qilingan investitsiyalar hajmi 3,4 barobar, jumladan, to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar miqdori 20 barobardan ko'proq o'sdi".¹

Darhaqiqat, yurtboshimiz tomonidan tanlangan, bugungi kunda O'zbekistonning har tomonlama taraqqiy etishida muhim omil hisoblangan hamda kelgusida yanada ulkan muvaffaqiyatlarga asos bo'lib xizmat qila oladigan mamlakatni modernizatsiyalash yo'li dunyoning rivojlangan yetakchi davlatlari singari iqtisodiyotimizning yuksalishi uchun o'z hissasini

¹Karimov I.A. "O'zbekistonda ijtimoiy-iqtisodiy siyosatni amalga oshirishda kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning roli va ahamiyati". Xalqaro konferensiyaning ochilish marosimidagi nutq. T.: "O'zbekiston", 2012. 18-bet.

qo'shmoqda. Buning yana bir isboti sifatida mamlakatimizni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish yakunlariga to'xtaladigan bo'lsak, Prezidentimiz ta'kidlaganlaridek: "O'tgan yil yakunlarini sarhisob qilar ekanmiz, avvalambor shuni ta'kidlashimiz kerakki, global jahon iqtisodiyotida hali-beri saqlanib qolayotgan jiddiy muammolarga qaramasdan, 2012-yilda O'zbekiston o'z iqtisodiyotini barqaror sur'atlar bilan rivojlantirishni davom ettirdi, aholi turmush darajasini izchil yuksaltirishni ta'minladi, dunyo bozorida g'zpozitsiyasini mustahkamladi.

Bu davrda mamlakatimiz yalpi ichki mahsuloti 8,2 foizga o'sdi, sanoat ishlab chiqarish hajmi 7,7 foizga, qishloq xo'jaligi 7 foizga, chakana savdo aylanmasi hajmi 13,9 foizga oshdi. Makroiqtisodiy barqarorlik va iqtisodiyotning mutanosibligi ta'minlandi".²

Ishlab chiqarishdagi, umuman, iqtisodiyotdagi yangiliklar va unga kiritilayotgan o'zgartirishlarning barchasidan ko'zlangan asosiy maqsad ishchilarning mehnat sharoitlarini yaxshilash, iqtisodiyotni modernizatsiyalash orqali mahsulot sifatini oshirish va pirovardida, mahsulot tannarxini kamaytirib, yuqori samaradorlikka erishishdir.

Yuqoridagilarni ijobiy hal etish maqsadida iqtisodiyotimizning asosiy yetakchi sohalaridan biri hisoblangan buxgalteriya hisobini takomillashtirish, jumladan xo'jalik yurituvchi sub'ektlarda tovar - moddiy zahiralari hisobini to'g'ri yuritish, ularning tannarxini to'g'ri shakllantirish, mahsulot tannarxi hamda davr xarajatlariga kiritiladigan xom-ashyo va materiallarni xarajat moddalari bo'yicha to'g'ri tasniflash, ishlab chiqarish siklining pirovard natijasi bo'lmish tayyor mahsulot va qayta sotish maqsadida qabul qilingan tovarlarni yuqori foydalilik darajasida sotish yo'llarini izlash, ular bo'yicha amalga oshirilayotgan muomalalarning to'g'ri, aniq va qonuniyligini auditorlik tekshiruvlaridan o'tkazish, shuningdek moliyaviy-xo'jalik faoliyatini tahlil

²Karimov I.A. "Bosh maqsadimiz – keng ko'lamli islohotlar va modernizatsiya yo'lini qat'iyat bilan davom ettirish". 2012-yilda mamlakatimizni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish yakunlari hamda 2013-yilga mo'ljallangan iqtisodiy dasturning eng muhim ustuvor yo'nalishlariga bag'ishlangan Vazirlar Mahkamasining majlisidagi ma'ruza. 2013-yil 18-yanvar. T.: "O'zbekiston", 2013. 5-bet.

qilish yordamida ichki foydalanilmayotgan rezervlarni qidirib topish hamda ularni ishlab chiqarishga safarbar etish kabi bir qancha masalalar shu kunning dolzarb muammolaridan biri bo'lib hisoblanadi.

Bitiruv malakaviy ishining maqsad va vazifalari– O'zbekistonda tovar-moddiy zahiralar hisobini yuritish va uning auditini o'tkazishning hozirgi kundagi holatini tahlil qilish, olingan ma'lumotlarga soslangan holda, rivojlangan xorijiy davlatlar tajribasidan kelib chiqib, tovar-moddiy zahiralar hisobini yuritish va uning auditini o'tkazishning bugungi kundagi muammolarini hal qilish bo'yicha tavsiyalar ishlab chiqishdan iboratdir.

Asosiy maqsaddan kelib chiqqan holda quyidagi vazifalar belgilab olindi:

- ✓ korxonalar hisob siyosatida tovar - moddiy zahiralar hisobini tashkil etish va auditorlik tekshiruvidan o'tkazish yo'nalishlarini o'rganib chiqish va tahlil qilish;
- ✓ tovar - moddiy zahiralar hisobini tashkil etish va yuritishni xalqaro standartlar asosida takomillashtirish masalalarini o'rganish va tavsiyalar berish;
- ✓ O'zbekistonda tovar - moddiy zahiralar hisobini yuritish va auditini takomillashtirish bo'yicha fikr-mulohazalar bildirish hamda takliflar kiritishdan iboratdir.

Bitiruv malakaviy ishining ob'ekti bo'lib, Toshkent shahrida faoliyat yuritayotgan mas'uliyati cheklangan jamiyat shaklidagi "LII-MRO" auditorlik tashkiloti hamda O'zbekiston Respublikasida faoliyat ko'rsatayotgan ishlab chiqarish korxonalari hisoblanadi.

Bitiruv malakaviy ishining predmeti korxonalar tomonidan tovar-moddiy zahiralar hisobining qay darajada yuritilayotganligi, ulartomonidan tovar-moddiy zahiralar auditining qanday tashkil etilayotganligi va Respublikamiz iqtisodiyotini rivojlantirishda tovar–moddiy zahiralar hisobi hamda auditini xalqaro standartlar va rivojlangan mamlakatlarning tajribasi asosida takomillashtirish masalalarini o'rganish va tahlil qilish hisoblanadi.

Mavzuning nazariy va uslubiy asoslari. Bitiruv malakaviy ishining nazariy-uslubiy asosi bo'lib, xo'jalik yurituvchi sub'ektlar faoliyatini tartibga soluvchi O'zbekiston Respublikasi Qonunlari, Prezident I.A.Karimovning mamlakat iqtisodiyotini isloh qilish va modernizatsiyalashga bag'ishlangan farmonlari, asarlari hamda ko'rsatmalari, Vazirlar Mahkamasining qarorlari, Moliya Vazirligining buxgalteriya hisobi, hisoboti va audit uslubiyotiga oid me'yoriy hujjatlari, auditorlik faoliyati milliy standartlari, shuningdek, xorijlik va respublikamiz iqtisodchi olimlarning tovar-moddiy zahiralar hisobi va auditini takomillashtirish muammolariga bag'ishlangan ilmiy tadqiqotlari hisoblanadi.

Bitiruv malakaviy ishida iqtisodiyotni modernizatsiyalash sharoitida tovar - moddiy zahiralar hisobining amaldagi holati, uni xalqaro standartlar asosida takomillashtirish, ushbu xo'jalik muomalalarini auditorlik tekshiruvdan o'tkazish tartibini takomillashtirish hamda audit tekshiruvlari orqali tovar - moddiy zahiralaridan to'g'ri va maqsadli foydalanish samaradorligini oshirish masalalariga to'xtalib o'tamiz.

Bitiruv malakaviy ishining tarkibi. Bitiruv malakaviy ishi kirish, 3 ta bob va 7 ta paragrafdan, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatidan iborat bo'lib, tarkibida 4 ta jadval, 8 ta chizma, 3 ta ilova mavjud.

I BOB. IQTISODIYOTNI MODERNIZATSIYALASH SHAROITIDATOVAR-MODDIY ZAHIRALAR HISOB VA AUDITINING NAZARIY ASOSLARI

1.1. Iqtisodiyotni modernizatsiyalash sharoitida tovar-moddiy zahiralarning korxona ishlab chiqarish faoliyatida tutgan o'rnini


O'zbekistonda amalga oshirilayotgan iqtisodiy islohotlarning hozirgi bosqichida mamlakat ishlab chiqaruvchilarini davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash borasida ko'pgina chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. Shu bilan birgalikda, har bir xo'jalik yurituvchi sub'ekt ko'proq miqdorda foyda olish maqsadida o'z ichki imkoniyatlaridan yanada samarali foydalanishga harakat qilmoqda.

Darhaqiqat, iqtisodiyotni modernizatsiyalash va bozor islohotlarini chuqurlashtirish jarayonida korxona faoliyatidagi muhim vazifalaridan biri tovar - moddiy zahiralarning, ayniqsa ishlab chiqarilgan mahsulotning tannarxini to'g'ri aniqlashdir. Mahsulot tannarxining to'g'ri shakllanishi uning raqobatdoshligini oshiradi va korxonaga yuqori naf keltiradi. Mahsulot raqobatdoshligini ta'minlash uchun ishlab chiqarishni texnik va texnologik yangilash bo'yicha katta va kichik loyihalarni izlash, buning uchun zarur mablag' va manbalarni topish — bu har bir korxona rahbari, buxgalteri va muhandis-texnik xodimlarining birinchi navbatdagi eng muhim vazifasi va majburiyati bo'lmog'i kerak. Demak, tovar - moddiy zahiralarning hisobining yuqori darajada olib borilishi korxonaning istiqbolli rivojlanishi uchun katta hissa qo'shadi.

Iqtisodiyotni modernizatsiyalash sharoitida korxonalarda tovar - moddiy zahiralardan foydalanish ustidan nazoratni kuchaytirish, ularning oqilona sarflanishiga rioya qilish, mahsulot tannarxida moddiy xarajatlarning salmog'ini minimallashtirish masalalariga alohida e'tibor beriladi. Eng avvalo, materiallarni to'g'ri, tejimli sarflash korxona faoliyatini rivojlantirishda va bu orqali mamlakat iqtisodiyotini gullab-yashnashida, aholining moddiy farovonligini

oshirishda muhim omil hisoblanadi.

4-sonli “Tovar - moddiy zahiralar” buxgalteriya hisobi milliy standarti (BHMS)ga muvofiq tovar - moddiy zahiralar – keyinchalik sotish maqsadida normal faoliyat yuritish jarayonida tutib turiladigan va ishlab chiqarish jarayonida mavjud bo’lgan, shuningdek mahsulot ishlab chiqarish, ishlarni bajarish yoki xizmatlar ko’rsatish jarayonida yoxud ma'muriy va ijtimoiy-madaniy vazifalarni amalga oshirish uchun foydalaniladigan moddiy aktivlardir³. Tovar- moddiy zahiralarini turkumlashda Respublikamiz olimlari SH.Haydarov, H.Tuxsanovlarning yondashuviga ko’ra xo’jalik yurituvchi sub’ektlar amaliyotida tovar - moddiy zahiralarining uch turi mavjud (1-chizma).




1-chizma. Tovar - moddiy zahiralar turlari⁴

Tovar - moddiy zahiralar texnik xususiyatiga qarab omborlarda maxsus sharoitlarda va joylarda saqlanishi belgilanadi. Demak, har bir xo’jalik yurituvchi sub’ekt tomonidan o’zining tarmoq xususiyatidan kelib chiqib, tovar - moddiy zahiralarini mustaqil ravishda tasniflanishi, korxonalarda tovar - moddiy zahiralarining ishlatilishi hamda ular ustidan nazoratning yanada takomillashuviga xizmat qiladi deb hisoblaymiz (2-chizma). Tovar-moddiy zahiralarining bunday tarzda guruhlariga ajratilishi buxgalteriya bo’limxodimlarining vaqtini tejab, ish sifatini oshirishga hamda tashqi foydalanuvchilarga aniq ma’lumotlar olishga imkon yaratadi.

³ “Tovar-moddiy zahiralar” 4-son BHMS. “O’zbekiston Respublikasi Buxgalteriya hisobi milliy standartlari to’plami”. T.: “NORMA”, 2010. 79-bet

⁴ Haydarov SH., Tuxsanov H. Tovar-moddiy zahiralarining tasnifi va ularning buxgalteriya hisobi uslubiy asoslari // Soliq solish va buxgalteriya hisobi. –Toshkent, 2006. -№4. -6-bet.



2-chizma. Tovar-moddiy zahiralarni ishlatilish tartibiga qarab tasniflash⁵
 Yuqoridagi chizmada tasniflangan tovar-moddiy zahiralalar xususida to'xtalib o'tamiz. U quyidagi guruhlardan tashkil topgan:

a) mahsulot ishlab chiqarish, ishlarni bajarish va xizmatlar ko'rsatish, ishlab chiqarishga xizmat ko'rsatish, ma'muriy ehtiyojlar va boshqa maqsadlar uchun mo'ljallangan tovar - moddiy zahiralalar:

- ✓ xom-ashyo va materiallar –mahsulotning moddiy asosini tashkil etadigan, unga ma'lum iste'mol xususiyatini berishda foydalaniladigan va ishlab chiqarish jarayonida o'zining qiymatini to'la ravishda mahsulot tannarxiga

⁵ Haydarov SH., Tuxsanov H. Tovar-moddiy zahiralarning tasnifi va ularning buxgalteriya hisobi uslubiy asoslari // Soliq solish va buxgalteriya hisobi. –Toshkent,2006. -№4. -11-bet.

o'tkazadigan vositalar;

- ✓ xarid qilinadigan yarim tayyor mahsulotlar va butlovchi buyumlar – ma'lum darajada ishlov bosqichidan o'tgan, lekin hali pirovard mahsulot darajasiga yetkazilmagan mahsulotlar;
- ✓ yoqilg'i – ko'mir, benzin, torf, gaz hamda neft mahsulotlari;
- ✓ ehtiyot qismlar — mashina va jihozlarni tuzatishda, ishdan chiqqan qismlarni almashtirishda qo'llaniladigan mashina va mexanizmlarning detal, agregat va qismlari;
- ✓ qurilish materiallari — bevosita qurilish va montaj ishlari jarayonida qurilish qismlarini tayyorlashda, bino va inshootlarning alohida konstruksiya va qurilmalarini ko'tarishda, qurib tugatishda foydalaniladi;
- ✓ idish va idishbop materiallar— turli material va mahsulotlarni o'rash, joylashtirish, tashish hamda saqlashda ishlatiladigan buyumlardir. Ularga yog'och, shisha, metallardan yasalgan va boshqa idishlar kiradi;
- ✓ chetga qayta ishlashga berilgan materiallar— korxona balansida turgan, qayta ishlash uchun boshqa korxonaga berilgan materiallar;
- ✓ boshqa materiallar – yuqoridagi satrlarda ko'rsatib o'tilmagan boshqa materiallar, chiqitlar, tuzatilmaydigan yaroqsiz mahsulotlar, metallom va boshqalar.

b) tashkilotda tayyorlangan tayyor mahsulot (ishlab chiqarish siklining pirovard natijasi - sotish uchun mo'ljallangan va qonun hujjatlari bilan belgilangan hollarda shartnomada yoki boshqa hujjatlarning talablarida nazarda tutilgan texnik va sifat tavsiflariga muvofiq keladigan, ishlov berilishi (butlanishi) tugallangan aktiv);

d) boshqa yuridik yoki jismoniy shaxslardan xarid qilingan (olingan) va tashkilotning odatdagi faoliyati davomida qo'shimcha ishlov berishsiz sotish yoki qayta sotish uchun mo'ljallangan tovarlar. Bunda uzoq muddatli aktivlar

ob'ektlari (binolar, inshootlar, transport vositalari, mulkiy (mutlaq) huquqlar va boshqalar) keyinchalik sotish yoki qayta sotish maqsadida xarid qilingan hollarda tovar bo'lib hisoblanishi mumkin.

e) inventar va xo'jalik jihozlari tarkibiga quyidagi mezonlardan biriga javob beradigan aktivlar kiritiladi:

- xizmat muddati bir yildan oshmaydigan;
- qiymati bir birlik (komplekt) uchun xizmat muddatidan qat'iy nazar, O'zbekiston Respublikasida belgilangan (xarid qilish paytida) eng kam ish haqining ellik baravarigacha miqdorda bo'lgan buyumlar. Tashkilot rahbari hisob siyosatida ularni inventar va xo'jalik anjomlari tarkibida hisobga olish uchun buyumlar qiymatining bundan past chegarasini belgilash huquqiga egadir.

Xizmat muddati va qiymatidan qat'iy nazar inventar va xo'jalik anjomlari tarkibiga quyidagilar kiritiladi:

- ✓ maxsus asboblari va moslamalar (muayyan buyumlarni turkumli va ommaviy ishlab chiqarish yoki yakka tartibdagi buyurtmani tayyorlash uchun mo'ljallangan maqsadli vazifadagi asboblari va moslamalar);
- ✓ maxsus va sanitariya kiyimlari, maxsus poyabzal;
- ✓ ko'rpa-to'shaklar;
- ✓ yozuv-chizuv anjomlari (kalkulyatorlar, stol ustiga qo'yiladigan asboblari va hokazo);
- ✓ oshxona inventari, shuningdek sochiq-dasturxonlar;
- ✓ ularni barpo etish xarajatlari qurilish-montaj ishlarining tannarxiga kiritiladigan vaqtinchalik (titulda bo'lmagan) inshootlar, moslamalar va qurilmalar;
- ✓ foydalanish muddati bir yildan kam bo'lgan almashtiriladigan uskunalar;
- ✓ ovlash qurollari (trallar, yoyma to'rlar, to'rlar, matraplar va hokazo).

f) detallar, uzellar, buyumlarning tugallanmagan ishlov berilishi va yig'ilishi hamda tugallanmagan texnologik jarayonlar ko'rinishida tugallanmagan ishlab chiqarish.

Ayrim hollarda sub'ektning omborxonalarida mavjud bo'lgan tovar - moddiy zahiralarining ayrim turlari ularning tarkibiga kiritilmasligi ham mumkin.

1-hol. Inventarizatsiya qilinayotgan davrda korxonaning egalik qilish huquqi bo'lmagan tovar - moddiy zahiralar topilishi mumkin. Bu mijozning buyurtmasiga asosan tayyorlangan, u tomonidan qiymati to'langan (ya'ni, oldi-sotdi bitimiga asosan sotilgan), unga qarashli va jo'natishni kutayotgan tovarlardir.

2-hol. Korxonadagi moddiy zahiralarining tarkibiga kirmaydigan tovarlarning yana bir kategoriyasi bu – konsignatsiyadagi tovarlardir. Konsignatsiya – bu komitent yoki konsignant deb ataladigan mulkdorning tovarlarini boshqa kompaniyaning omborlarida joylashtirishidir. Konsignor bunday tovarlarni o'zining moddiy zahiralarini tarkibiga kiritmasligi kerak, chunki realizatsiya davrigacha bu tovarlar jo'natuvchi – konsignantning mulki hisoblanadi.

Tovar - moddiy zahiralar buxgalteriya hisobining birligi tashkilot tomonidan mustaqil ravishda, ushbu zahiralar to'g'risida to'liq va ishonchli ma'lumotlarni shakllantirish hamda ularning mavjudligi va harakati ustidan lozim darajada nazoratni ta'minlash maqsadida belgilanadi. Tovar - moddiy zahiralarining xususiyatlari, ularni xarid qilish va ulardan foydalanish tartibiga bog'liq holda tovar - moddiy zahiralarining birligi nomenklatura raqami, turkum, bir turdagi guruh va hokazo bo'lishi mumkin.

Demak, bugungi iqtisodiyotni modernizatsiyalash sharoitida ko'rib turganimizdek tovar – moddiy zahiralar nafaqat ishlab chiqarish korxonalarida, balki barcha xo'jalik yurituvchi sub'ektlarda yuqori darajada ahamiyatga ega. Bu esa xo'jalik yurituvchi sub'ektlarda faoliyat yuritayotgan buxgalteriya bo'limi xodimlarining zimmasidagi mas'uliyatni yanada oshiradi. Shunday ekan, tovar-moddiy zahiralarini korxonaning tarmoq xususiyatidan kelib chiqib to'g'ri va aniq turkumlash, guruhlariga ajratish ular hisobining mamlakatimizda o'rnatilgan me'yoriy hujjatlar asosida yuritilishiga hamda tovar – moddiy


zahiralar ustidan ichki nazorat tizimining yuqori darajada tashkil etilishiga katta hissa qo'shadi.

1.2. Tovar-moddiy zahiralar hisobi va auditining maqsadi, vazifalari hamda axborot manbalari

Hozirgi kunda xo'jalik yurituvchi sub'ektlar moliya-xo'jalik faoliyatining moliyaviy hisobotlarda aks ettirilgan natijalarni baholash masalalariga yangicha, zamonaviy yondashuv uslublari juda ham zarur. Bu mavjud nazariy, tashkiliy - huquqiy asoslar va amaliy muammolar bo'yicha auditorlik faoliyatining sifatini oshirish, hamda respublikamizda tashqi va ichki audit tekshiruvlarini zamonaviy darajada tashkil qilish va uni rivojlantirish borasida chuqur tadqiqotlar o'tkazishni taqozo etmoqda. Bir tomondan, auditorlik faoliyatining xalqaro tajribalariga tizimli yondashish, ularni chuqur tahlil qilish, boshqa tomondan bozor iqtisodiyotining jahon hamjamiyatida e'tirof etilgan o'zbek modelining xususiyatlari to'g'risidagi bilimlarimizdan yuqori darajada foydalangan holda, iqtisodiyotni modernizatsiyalash sharoitida moliyaviy hisobot axborotlaridan foydalanuvchilar uchun nazoratning maxsus tashkiliy shakli - auditni istiqbolli rivojlantirish zarurligi ayon bo'lmoqda.

Shu sababli bugungi kunda avvalo, tovar - moddiy zahiralarining tarkibi, holati, harakati, miqdori, sotib olinishi yoki ishlab chiqarilishi, baholash va qayta baholash tartiblariga e'tibor berish lozim. Buxgalteriya hisobining ma'lumotlari o'zida mahsulotning tannarxini kamaytirish imkoniyatlarini - moddiy boyliklardan unumli foydalanish, sarflar me'yorini pasaytirish, tovar-moddiy qiymatliklarning talabga javob beradigan darajadagi saqlash, qo'riqlash, shuningdek tovar - moddiy zahiralar hisobining to'g'ri yuritilishi va boshqalar to'g'risidagi ma'lumotlarni umumlashtirishi lozim. Ushbu talablarni bajarish maqsadida buxgalteriya hisobi oldiga bir qancha vazifalar qo'yiladi (3-chizma). Ushbu vazifalarni bajarish va nazoratni yetarli talab darajasida o'rnatish sub'ektda marketing bo'limini tashkil qilish zaruriyatini keltirib chiqaradi. Bundan tashqari, omborxona xo'jaligining holati, uning jihozlari -

o'lchov uskunolari, tokchalar, stellajlar, yashiklar ham muhim o'rin tutadi. Shuningdek, tovar - moddiy zahiralarni qabul qilib oluvchi va topshiruvchi javobgar shaxslarni tayinlash hamda ushbu muomalalarni amalga oshirish uchun zarur bo'lgan hujjatlarga imzo chekuvchi javobgar shaxslarni tayinlash va belgilash muhim o'rin tutadi. Chunki tovar - moddiy zahiralardan xo'jalik faoliyatida turli maqsadlarda foydalaniladi.



3-chizma. Tovar - moddiy zahiralari hisobining vazifalari⁶

Mamlakatimizda iqtisodiyotni modernizatsiyalash va bozor iqtisodiyoti munosabatlarining rivojlanishi natijasida turli mulkchilik shaklidagi xo'jalik yurituvchi sub'ektlar moliyaviy-xo'jalik faoliyatini samarali tashkil etish va ularga professional auditorlik xizmatlar ko'rsatishni takomillashtirish bugungi kunda dolzarb masalalardan biri hisoblanadi. Auditorlik faoliyatini tartibga soladigan huquqiy-me'yoriy tizimni iqtisodiy islohotlar talablariga mos ravishda rivojlantirishga bog'liq. Demak, auditorlik xizmatlarni va auditorlik faoliyatini samarali amalga oshirish ko'p jihatdan me'yoriy-huquqiy asoslarga bog'liq bo'lib hisoblanadi.

Xo'jalik yurituvchi sub'ektlar tomonidan tuziladigan moliyaviy hisobotlardan foydalanuvchilar investitsion qarorlar qabul qilishda unga asosiy ma'lumot manbai sifatida qarashadi. Shu maqsadda moliyaviy hisobotlardan foydalanuvchilarni yetarli darajada ishonchli ma'lumotlar bilan ta'minlash, ushbu moliyaviy hisobotlarning auditorlik tekshiruvidan nechog'li sifatli o'tkazilganligiga bog'liq. Auditorlik tekshiruvlarining asosiy maqsadi xo'jalik yurituvchi subyektlar buxgalteriya hisobotlarining ishonchliligi to'g'risida auditorning mustaqil bildirilgan fikridan iborat. Buning uchun auditor hisobotning ishonchliligi yoki uning ishonchliligini rad etish to'g'risidagi asosli fikr bildirishga imkon beradigan dalillarni to'plashi zarur.

Xo'jalik yurituvchi sub'ektlar ishlab chiqarish faoliyatlarini amalga oshirish uchun ma'lum miqdorda tovar - moddiy zahiralarga ega bo'lishi kerak. Tovar - moddiy zahiralari xo'jalik yurituvchi sub'ektlarning ishlab chiqarish faoliyatini normal davom etishini ta'minlaydi. Demak, korxona faoliyatining bir maromda davom etishini ta'minlab turish tovar - moddiy zahiralarni audit tekshiruvidan o'tkazishni taqozo etadi.

Har qanday faoliyat, xususan auditorlik faoliyati ham samarali bo'lishi uchun dastavval, uning puxta va aniq rejasi hamda dasturini tuzish lozim.

⁶ Muallif tomonidan tayyorlandi.


Ularning mazmuni qo'yilgan maqsad va uni bajarish uchun belgilangan aniq vazifalardan kelib chiqadi.

Tovar - moddiy zahiralarini auditorlik tekshiruvdan o'tkazishning maqsadi- ularning saqlanishi, tejamli va oqilona ishlatilishi, hisobga olishning to'g'ri tashkil etilishini aniqlashdan iborat. Shuningdek, hisobot ko'rsatkichlarining ishonchliligini va tovar - moddiy zahiralar bilan bog'liq muomalalar hisobi va soliqqa tortish uslubining O'zbekiston Respublikasida amal qilayotgan qonunchilik hamda me'yoriy hujjatlarga muvofiqligini aniqlash lozim. Ushbu maqsadga muomalalar mohiyatini, hamda nazorat tuzilmasi va buxgalteriya hisobi tizimini tekshiruvdan o'tkazish hamda risklarni baholash orqali erishiladi. Zahiralarni tekshirish, ular hajmi katta bo'lgan korxonalarda auditning asosiy qismi deb qaraladi.

Tovar - moddiy zahiralarining tarkibiga kiruvchi tayyor mahsulotni rejadagi hajmi bo'yicha sotish tashkilotga ishlab chiqarish xarajatlarini qoplash, davlat budjeti, kredit bo'yicha banklar va boshqa xo'jalik sub'ektlari oldidagi majburiyatlarni bajarish imkoniyatini yaratadi, hamda ishlab chiqarishni takomillashtirish va kelajakda rivojlanish uchun muhim bo'lgan foyda olishga yordam qiladi.

Tovar-moddiy zahiralarini tekshirishda auditorlar bir qancha ma'lumotlardan, turli hujjatlardan foydalanib ish yuritadilar. Bular xo'jalik yurituvchi sub'ektning tovar - moddiy zahiralariga oid buxgalteriya hisobi ma'lumotlaridan, ularning tekshirilishi uchun kerak bo'ladigan mamlakatimizdagi me'yoriy-huquqiy hujjatlardan hamda boshqa ma'lumot manbalaridan tarkib topishi mumkin. Xo'jalik yurituvchi sub'ektning tovar - moddiy zahiralariga oid buxgalteriya hisobi ma'lumotlari audit jarayonining asosiy manbaini tashkil qiladi va albatta, ushbu ma'lumot manbalaridan tekshiruv vaqtida foydalaniladi (4-chizma). Shu sababli ularni alohida ajratib olish audit ish sifatining oshishiga katta yordam beradi. Tovar – moddiy zahiralarini hisobga olishda qo'llaniladigan dastlabki hujjatlar shakllari sub'ektdagi moddiy qiymatliklarning turlari va guruhlariga bog'liq. Qo'llaniladigan dastlabki hujjatlarda barcha zarur rekvizitlar bo'lishi

shart. Ushbu hujjatlarga quyidagilar kiradi: moddiy qiymatliklarni olish uchun ishonchnomalar, kirim orderlari, materiallar, inventar va xo'jalik jihozlarini kiringa olish va hisobdan chiqarish dalolatnomalari, limit-zabor kartalari, talabnoma-yuk-xatilar, tovar-transport yuk-xatilari, ombor hisobi kartochkalari.



4-chizma. Tovar - moddiy zahiralarni auditining ma'lumot manbalari⁷

Tovar - moddiy zahiralarni hisobga olishni tartibga soluvchi, ular bilan bog'liq operatsiyalarni huquqiy jihatdan to'g'ri amalga oshirilishini ta'minlovchi hamda audit tekshiruvlarini amalga oshirishda qo'llaniladigan bir qancha qonun hujjatlari mavjud, jumladan :


- ✓ O'zbekiston Respublikasi Soliq kodeksi;
- ✓ O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksi;
- ✓ "Buxgalteriya hisobi to'g'risida"gi qonun;
- ✓ "Auditorlik faoliyati to'g'risida"gi qonun;

⁷ Muallif tomonidan tayyorlandi.

- ✓ Auditorlik faoliyatining milliy standartlari;
- ✓ 4-son “Tovar - moddiy zahiralari” BHMS;
- ✓ 19-son “Inventarlashni tashkil etish va o‘tkazish” BHMS;
- ✓ “Tovar - moddiy boyliklarni olishga ishonchnomalar berish va ularni ishonchnomalar bo‘yicha berish tartibi to‘g‘risida”gi Nizom va boshqalar.

Shuni ta’kidlash lozimki, yuqoridagi ma’lumot manbalaridan foydalanib, audit jarayonida bir qancha vazifalar amalga oshiriladi (5-chizma).

Tovar - moddiy zahiralarni hisobga olishga doir buxgalteriya registrarlari xilma-xil bo‘lishi mumkin. Ular sub'ektda qo‘lanilayotgan buxgalteriya hisobi shakli va usullariga, hamda mavjud tovar - moddiy zahiralarning turlari va guruhlariga bog‘liq. Ammo, har qanday holatda ham auditor 1010 «Xom-ashyo va materiallar», 1080 «Inventar va xo‘jalik jihozlari», 1510 «Materiallarni tayyorlash va xarid qilish» va 1610 «Materiallar qiymatidagi farqlar» schyotlar bo‘yicha analitik va sintetik hisob registrklarini, aylanma qaydnomalari, omborxona hisobi kartochoyklari, daftarlar, inventarizatsiya materiallarini hamda tugallanmagan ishlab chiqarishlar (2010, 2110, 2310 schyotlar) bo‘yicha hisob registrklarini tahlil qilib chiqishi lozim.



5-chizma. Tovar - moddiy zahiralar auditining vazifalari⁸

Auditorning sub'ekt xodimlari bilan rahbariyat tarkibidagi, buxgalteriya hisobi va ichki nazorat tizimidagi o'zgarishlar to'g'risidagi suhbatlari tekshiruv uchun zarur qo'shimcha axborotlar berishi mumkin. Bunday o'zgarishlarning natijalari ishchi hujjatlarda rasmiylashtirilgan bo'lishi lozim.

Auditor tekshiruv mobaynida tekshiruvning ushbu sohasi bo'yicha tanlangan hisob yuritish usullari va uslublari to'g'risida axborotga ega bo'lishi lozim. 4-sonli «Tovar - moddiy zahiralar» nomli buxgalteriya hisobi milliy standarti talablariga muvofiq sub'ektning hisob yuritish siyosati to'g'risidagi buyrug'ida tovar – moddiyqiymatliklarni hisobga olishninguslubiy jihatlari, xususan quyidagilar haqidagi axborotlar aks ettirilishi lozim:

- asosiy vositalar bilan inventar va xo'jalik jihozlari o'rtasidagi chegaralar;
- tovar - moddiy qiymatliklarni sotib olish (tayyorlash) ni hisobga olish;
- tovar - moddiy qiymatliklarni ularning turlari bo'yicha hisobdan chiqarish natijasida baholash usullari.

Shunday qilib, yuqorida ta'kidlaganimizdek auditorlik faoliyatining samarali olib borilishi uchun auditning maqsadi va uni bajarish uchun belgilangan vazifalarni aniq belgilab olish audit ish sifatining oshishiga, bajariladigan ishlarga ketadigan vaqt sarfini to'g'ri taqsimlashda hamda xo'jalik yurituvchi sub'ektlarning tovar - moddiy zahiralari bilan bog'liq muomalalarning eng muhim tomonlarini chuqur o'rganishga yordam beradi.

⁸ Muallif tomonidan tayyorlandi.

II BOB. XO‘JALIK YURITUVCHI SUB‘EKTLARDA TOVAR-MODDIY ZAHIRALARI HISOBINI YURITISHNING AMALDAGI HOLATI

2.1. Tovar-moddiy zahiralarni korxonaga kirim qilish va baholash xususiyatlari

Korxona mahsulotni iste'molchilar bilan tuzilgan shartnomalar, reja topshiriqlari asosida bozor talablarini o'rganish kabi masalalarga katta e'tibor bergan holda ishlab chiqaradi. Demak, korxona mahsulot tannarxining shakllanishiga alohida e'tibor berishi, ya'ni mahsulotning tannarxini pasaytirish choralarini izlashi darkor. Bugungi kunda ushbu masala barcha ishlab chiqarish korxonalari oldidagi dolzarb muammloardan biri bo'lib qolmoqda. Muhtaram Prezidentimiz tomonidan ushbu masala yuzasidan chuqur islohotlar amalga oshirilmoqda. Jumladan, yurtboshimiz I.A.Karimovning farmoniga asosan uning ijrosini ta'minlash maqsadida O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2012-yil 28-noyabrdagi 333-son "Sanoatda ishlab chiqarish xarajatlarini qisqartirish va mahsulot tannarxini pasaytirish borasidagi qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi qarori qabul qilingan bo'lib, unga binoan mahalliy korxonalar tomonidan ishlab chiqarilayotgan mahsulotlarning raqobatbardoshligini yanada oshirish, ularni ishlab chiqarish hajmlarini ko'paytirish hamda ichki va tashqi bozorlarda sotish va shu asosda sanoat ishlab chiqarishining barqaror rivojlanishini va eksport salohiyat o'sishini ta'minlash maqsadida kompaniyalar, uyushmalar va boshqa xo'jalik birlashmalari va korxonalarning O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot vazirligi, Moliya vazirligi

hamda Xususiylashtirish, monopoliyadan chiqarish va raqobatni rivojlantirish davlat qo'mitasi bilan kelishilgan 2013-yilda xo'jalik birlashmalari va yirik sanoat korxonalarida mahsulot tannarxini o'rtacha 11,2 foizga qisqartirishning yig'ma parametrlari bo'yicha takliflari keltirilgan⁹.

Demak, ishlab chiqarilayotgan mahsulotning asosini tashkil etuvchi materiallarning arzon va sifatli kirib kelishiga alohida e'tibor qaratish lozim. Bu esa mahsulot tannarxining pasayishi uchun muhim omil bo'lib xizmat qiladi.

Tovar - moddiy zahiralar quyidagilar natijasida tashkilotning buxgalteriya balansiga kiritilishi lozim¹⁰:

- yetkazib berish (oldi-sotdi) shartnomasi bo'yicha xarid qilish;
- muassislardan tashkilotning ustav kapitaliga ulush sifatida kelib tushishi;
- muassislar tarkibidan chiqishda yoki tugatilayotgan tashkilotning mol-mulki uning ishtirokchilari o'rtasida taqsimlanayotganda ilgari boshqa tashkilotning ustav kapitaliga kiritilgan tashkilotning ta'sis ulushi qaytarilishidan kelib tushishi;
- tekinga kelib tushish (hadya shartnomasi bo'yicha);
- ayirboshlash;
- uzoq muddatli aktivlar tarkibidan o'tkazish;
- ortiqcha (hisobga olinmagan) tovar - moddiy zaxiralarni aniqlash;
- ilgari berilgan tovar qarzining qaytarilishi yoki tovar qarzini olish;
- tashkilotning o'zida tayyorlanishi;
- hisobot davri oxirida tugallanmagan va tugallanmagan ishlab chiqarish tarzida hisobga olinadigan ishlarni bajarish va xizmatlar ko'rsatish;
- tovar - moddiy zaxiralarga bo'lgan mulk huquqi olinishiga olib keladigan boshqa operatsiyalar va hodisalar.

Kirim qilingan tovar - moddiy zahiralar buxgalteriyada ma'lum bir qiymatda hisobga olinishi lozim. Tovar - moddiy zaxiralar quyidagi ikki qiymat:

⁹ O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami, 2012-yil.

¹⁰ "Tovar-moddiy zahiralar" 4-son BHMS. "O'zbekiston Respublikasi Buxgalteriya hisobi milliy standartlari to'plami". T.: "NORMA", 2010. 82-bet

hisobot davri oxiridagi tannarxidan (xarid qiymati yoki ishlab chiqarish tannarxi) yoki sotishning sof qiymatidan eng kam qiymat bo'yicha baholanadi.

Sotishning sof qiymati – tovar - moddiy zahiralar ni maqsadiga ko'ra ishlatiladigan holatga keltirish va sotish bo'yicha baholangan xarajalar chegirilgan holda joriy qiymati.

Joriy qiymat – ma'lum sanadagi amal qilayotgan bozor narxlarini bo'yicha tovar - moddiy zaxiralarning qiymati yoki xabardor qilingan, bitimni amalga oshirishni xohlovchi, mustaqil taraflar o'rtasida bitimni amalga oshirishda aktivni sotib olish yoki majburiyatni bajarish uchun yetarli bo'lgan summa.

Kirim qilingan tovar - moddiy zahiralar aktiv sifatida tan olinishi uchun ushbu shartlar bajarilishi lozim :

- tashkilotga kelgusida aktiv bilan bog'liq iqtisodiy foyda kelib tushishiga ishonch bo'lishi;
- aktiv qiymatini ishonchli baholash mumkin bo'lishi;
- ularga bo'lgan mulk huquqi o'tishi.

Tovar - moddiy zahiralar ga bo'lgan mulk huquqi, ular bilan bog'liq xatarlar va mukofotlarning o'tish payti uning shartlari kelishiladigan yetkazib berish (oldi-sotdi) shartnomasi asosida belgilanadi. Ular bo'yicha mulk huquqi tashkilotga tegishli bo'lmagan, biroq shartnoma shartlariga muvofiq uning ixtiyorida bo'lgan tovar - moddiy zahiralar balansdan tashqari hisobvaraqlarda shartnomada nazarda tutilgan baho bo'yicha aks ettiriladi.

Tovar - moddiy zahiralar tashkilotning buxgalteriya balansiga tannarxi bo'yicha kiritiladi, u xarid qiymati (yetkazib beruvchiga to'lanadigan summalar) va ularni xarid qilish bilan bog'liq bo'lgan barcha xarajatlarni o'z ichiga oladi.

Tovar - moddiy zahiralar ni xarid qilish bilan bog'liq bo'lgan va ularning tannarxiga kiritiladigan xarajatlarga quyidagilar kiritiladi:

- ✓ bojxona bojlari va yig'imlari;
- ✓ tovar - moddiy zahiralar ni xarid qilish bilan bog'liq bo'lgan soliq va yig'imlar summolari (agar ular qoplanmasa);

- ✓ tovar - moddiy zahiralar ular orqali xarid qilingan ta'minotchi va vositachi tashkilotlarga to'lanadigan vositachilik haqi;
- ✓ tovar - moddiy zahiralarini sertifikatlash va ularni tovar - moddiy zahiralarini xarid qilish bilan bog'liq bo'lgan texnik shartlarga muvofiq sinash bo'yicha xarajatlar;
- ✓ tovar - moddiy zahiralarini tayyorlash va ularni joriy joylashish yoki foydalanish joyiga yetkazib berish bo'yicha transport-tayyorlov xarajatlari. Ular tayyorlash, yuklash-tushirish ishlari, tovar - moddiy zahiralarini barcha turdagi transport bilan ularni joriy joylashish yoki foydalanish joyiga tashish uchun tariflar (fraxt)ni to'lash bo'yicha xarajatlar, shu jumladan tovar - moddiy zahiralarini tashishda xatarlarni sug'urtalash bo'yicha xarajatlardan tashkil topadi;
- ✓ tovar - moddiy zaxiralarni xarid qilish bilan bevosita bog'liq bo'lgan boshqa xarajatlar.

Moddiy zahiralarini xarid qilish bo'yicha xarajatlar birlamchi hujjatlar (bojxona yuk deklaratsiyasi, hisobvara-faktura, qabul qilish-topshirish dalolatnomasi, inventarlash dalolatnomasi va boshqalar) asosida belgilanadi.

Savdo diskontlari, chegirmalar va boshqa shu kabi chegiruvlar tovar - moddiy zahiralarini xarid qilish xarajatlarini belgilash chog'ida amalga oshiriladi.

Xarid qilingan tovar - moddiy zahiralariga haq to'lash bilan bog'liq xarajatlar, ya'ni akkreditiv ochish xarajatlari, o'tkazmalar uchun bank komissiyasi, tovar - moddiy zahiralarini chet el valyutasiga xarid qilish chog'ida valyutani konvertatsiyalash bo'yicha komissiya va boshqa bank xizmatlari, tovar - moddiy zaxiralarni xarid qilish bo'yicha kontraktlarni tayyorlash, ro'yxatdan o'tkazish va yopish bilan bog'liq xarajatlar hamda aktivlarni xarid qilish bilan bevosita bog'liq bo'lmagan boshqa xarajatlar tovar - moddiy zaxiralarning tannarxiga kiritilmaydi, balki ular sodir bo'lgan hisobot davrida xarajatlar sifatida tan olinadi.

Muddatidan oldin to'lash natijasida yoki katta hajmda xarid qilish natijasida yoxud taraflarning kelishuvida nazarda tutilgan boshqa shunga o'xshash sabablarga ko'ra olingan pul chegirmalari xarid qilingan tovar - moddiy zahiralar qiymatini kamaytirmaydi, balki ular sodir bo'lgan hisobot davrida moliya-xo'jalik faoliyati natijalariga kiritiladi.

Tovar-moddiy zahiralar qarz kapitali hisobiga xarid qilinganda yoki tayyorlanganda kredit (qarz)dan foydalanganlik uchun foizlar ko'rinishidagi xarajatlar uning hisobidan butkul yoki qisman sotib olingan tovar-moddiy zahiralarining tannarxiga kiritilmaydi.

Tovar –moddiy zahiralariga qo'shimcha ishlov berish va ularni foydalanishga yaroqli holga keltirish bo'yicha ishlar bilan bog'liq xarajatlar tashkilotning mahsulot ishlab chiqarish, ishlarni bajarish va xizmatlar ko'rsatish bilan bog'liq bo'lmagan navlarga ajratish, o'rab-joylash va ularni tovar ko'rinishiga keltirish bo'yicha xarajatlarini o'z ichiga oladi. Yaroqli holga keltirish bo'yicha ishlar bilan bog'liq bo'lgan xarajatlar, ularning ham tashkilot - xaridorning o'z kuchi bilan, ham chet tashkilotlar tomonidan bajarilishidan qat'i nazar tovar - moddiy zaxiralarning tannarxiga kiritiladi.

Tashkilotning transport-tayyorlov xarajatlari quyidagi usullardan biri bo'yicha hisobga qabul qilinadi yoki xarid qilingan tovar - moddiy zaxiralar tannarxiga bevosita (to'g'ridan-to'g'ri) yoki bilvosita usulda kiritiladi. Transport-tayyorlov xarajatlarini hisobga olishning qo'llaniladigan usuli tashkilotning hisob siyosatida aks ettirilishi lozim.

Haq evaziga xarid qilingan tovar - moddiy zahiralarining tannarxi qoplanadigan, ya'ni hisobga kiritishga qabul qilinadigan soliqlar chegirilgan hamda yuqorida nazarda tutilgan tovar - moddiy zahiralarini xarid qilish bilan bog'liq bo'lgan xarajatlar qo'shilgan holda, shartnomaga yoki ularning xarid qilinganligi, ishlar bajarilganligi, xizmatlar ko'rsatilganligini tasdiqlovchi hujjatlarga muvofiq yetkazib beruvchiga to'lanadigan summa tariqasida aniqlanadi.

Chet el valyutasida xarid qilingan tovar - moddiy zaxiralarning tannarxi mazkur tovar - moddiy zahiralarini xarid qilish bilan bog'liq bo'lgan tegishli xarajatlarni qo'shgan holda, chet el valyutasidagi summani bojxona yuk deklaratsiyasi yoki ishlar bajarilganligi, xizmatlar ko'rsatilganligini tasdiqlovchi hujjatlarni rasmiylashtirish sanasidagi O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki kursi bo'yicha qayta hisoblash yo'li bilan so'mda belgilanadi.

Tashkilotning ustav kapitaliga ulush sifatida olingan tovar - moddiy zahiralarining tannarxi, agar O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlarida boshqa hol nazarda tutilmagan bo'lsa, tashkilot muassislari tomonidan kelishilgan ularning puldagi bahosidan kelib chiqib aniqlanadi.

Tashkilot tomonidan tekinga (hadya shartnomasi bo'yicha) olingan hamda asosiy vositalar va boshqa mol-mulkning chiqib ketishi natijasida olingan tovar - moddiy zahiralarining tannarxi ularning buxgalteriya hisobiga qabul qilinish sanasidagi joriy qiymatidan kelib chiqqan holda aniqlanadi.

Qonun hujjatlarida belgilangan tartibda xuddi shunday tovar - moddiy zahiralariga ayirboshlash yo'li bilan olingan tovar - moddiy zahiralarining tannarxi berilgan tovar - moddiy zahiralarining balans qiymatiga teng.

Qonun hujjatlarida belgilangan tartibda xuddi shunday bo'lmagan tovar - moddiy zaxiralarga ayirboshlash yo'li bilan olingan tovar - moddiy zaxiralarning tannarxi berilgan tovar - moddiy zahiralarining joriy qiymatiga teng.

Tovar - moddiy zahiralar qo'shimcha to'lov bilan ayirboshlangan holatlarda almashtirish yo'li bilan olingan tovar - moddiy zaxiralarning tannarxi berilgan tovar - moddiy zaxiralarning ayirboshlanish chog'ida o'tkazilgan (olingan) pul mablag'lari yoki ularning ekvivalentlari summasiga oshirilgan (kamaytirilgan) joriy qiymatiga teng.

Tashkilot tomonidan chetdan qayta sotish uchun xarid qilingan tovarlar xarid qiymati bo'yicha hisobga olinishi mumkin. Bunda tovarlarni xarid qilish bilan bog'liq bo'lgan xarajatlar ular yuzaga kelgan hisobot davrida tashkilotning sotish bo'yicha davr xarajatlari kiritiladi.

Uzoq muddatli aktivlar tarkibidan tovar - moddiy zahiralarni tarkibiga o'tkazilgan aktivlarning tannarxi ushbu uzoq muddatli aktivlarning balans (qoldiq) qiymati bo'yicha belgilanadi.

Ortiqcha (hisobga olinmagan) tovar-moddiy zahiralarni inventarlash natijasida aniqlangan aktivlar tannarxi ular aniqlangan sanadagi joriy qiymatdan kelib chiqqan holda belgilanadi.

2.2. Tovar-moddiy zahiralarni hisobini yuritish tartibi

Xo'jalik yurituvchi sub'ektlar bugungi kunda xom-ashyo, material, yoqilg'i va elektr-energiya xarajatlari salmog'ini kamaytirish kabi sifat ko'rsatkichlariga alohida e'tibor berishlari kerak. Bunga esa ilg'or konstruksiya materiallardan, qimmat materiallar o'rniga mahsulot sifatiga u qadar salbiy ta'sir ko'rsatmaydigan, ishlab chiqarish chiqindilarini kamaytiradigan o'rinbosar materiallardan foydalanish orqali erishish mumkin bo'ladi. Ishlab chiqarish muomalalarida tovar –moddiy zahiralarni hisobda yuqoridagi 1-chizmada tasvirlangani kabi guruhlariga bo'lingan holda aks ettirish korxonalar uchun ma'lumotlardan samarali foydalanishga yordam beradi .

Demak, 1-guruhdagi ishlab chiqarish, ishlarni bajarish yoki xizmatlar ko'rsatish jarayonida qatnashuvchi tovar-moddiy zahiralarni hisobga olish uchun quyidagi aktiv schyotlardan¹¹ foydalanamiz:

1000– “Materiallarni hisobga oluvchi schyotlar”;

1100 – “O'stirishdagi va boquvdagi hayvonlarni hisobga oluvchi schyotlar”;

1500 – “Materiallarni tayyorlash va xarid qilishni hisobga oluvchi schyotlar”;

1600 – “Materiallar qiymatidagi farqlarni hisobga oluvchi schyotlar” ;

Ikkinchi guruh tarkibiga quyidagi hisobvaraqlarda hisobga olinuvchi tugallanmagan ishlab chiqarishlar kiradi:

2000 – “Asosiy ishlab chiqarishni hisobga oluvchi schyotlar” ;

¹¹ “Xo'jalik yurituvchi sub'ektlar moliyaviy-xo'jalik faoliyatining buxgalteriya hisobi schyotlari rejasi va uni qo'llash bo'yicha yo'riqnoma”. 21-son BHMS. – T.: “NORMA”, 2010. 9-bet.

2100 – “O‘zida ishlab chiqarilgan yarim tayyor mahsulotlarni hisobga oluvchi schyotlar”;

2300 – “Yordamchi ishlab chiqarishni hisobga oluvchi schyotlar”;

2500 – “Umumishlab chiqarish xarajatlarini hisobga oluvchi schyotlar”;

2600 – “Ishlab chiqarishdagi yaroqsiz mahsulotlarni hisobga oluvchi schyotlar”;

2700 – “Xizmat ko‘rsatuvchi xo‘jaliklarni hisobga oluvchi schyotlar”;

Uchinchi guruhga xo‘jalik yurituvchi sub’ekt odatiy faoliyatining borishi chog‘ida sotish uchun mo‘ljallangan tayyor mahsulot va tovarlar kiritiladi. Hisobga olish quyidagi hisobvaraqlardan foydalaniladi:

2800 – “Tayyor mahsulotlarni hisobga oluvchi schyotlar”;

2900 – “Tovarlarni hisobga oluvchi schyotlar” ;

Tovar – moddiy zahiralarning tarkibiy qismi bo‘lmish materiallar tegishli hujjatlar asosida korxonaga kirim qilingandan so‘ng buxgalteriyada ularning tannarxi bo‘yicha yoki hisob baholari bo‘yicha hisobi yuritiladi. Bu usullardan qay biridan korona foydalanishi uning hisob siyosatida ko‘rsatiladi.

Materiallarning tannarxi bo‘yicha hisobini ishlab chiqarish hajmi kata bo‘lmagan hamda materiallarning nomlari uncha ko‘p bo‘lmagan korxonalarda yuritish maqsadga muvofiq. Materiallarning tannarxi 1000 – “Materiallar” hisobvarag‘ida yig‘iladi.

Materiallarning qiymati hisob baholari bo‘yicha aks ettirilganda hisob bahosi sifatida:

- mol yetkazib beruvchining narxi;
- oldingi oy ma‘lumotlari bo‘yicha materiallarning haqiqiy tannarxi;
- reja –hisob –kitob narxlari qabul qilinishi mumkin.

Hisob baholari bo‘yicha tannarxni shakllantirishda qo‘shimcha ravishda 1510- “Materiallarni tayyorlash va xarid qilish” va 1600 – “Materiallar qiymatidagi farqlar” hisobvaraqlaridan foydalaniladi.

Materiallarning haqiqiy tannarxi 1000 – guruh hisobvaraqlari debetida va 1610 –hisobvaraqda aks ettirilgan ma'lumotlarni jamlash yo'li bilan aniqlanadi. Bunda 1000-guruh hisobvaraqlari debetida materiallar hisob baholari bo'yicha aks ettiriladi, 1610-schyotda esa materiallarning hisob bahosi va haqiqiy tannarxi o'rtasidagi farq ko'rsatiladi. Yordamchi sifatida 1510-schyotdan foydalaniladi, uning debetida materiallarning haqiqiy tannarxi to'g'risidagi, kreditida esa – hisob bahosi to'g'risidagi ma'lumotlar shakllantiriladi.

Tovar – moddiy zahiralari hisobining amaldagi holatini o'rganish maqsadida “Oliy nav” MCHJda tadqiqot ishlarini olib bordik. Jamiyat non va non mahsulotlarini ishlab chiqarish bilan shug'ullanadi. Biz faoliyatini o'rgangan “Oliy nav” MCHJ omboriga iyun oyida 100 banka bo'yoqni kirim qiladi. Hisob siyosatiga ko'ra materiallar hisob baholari bo'yicha aks ettiriladi. Bir banka bo'yoqning hisob bahosi 15 ming so'm. Yetazib eruvchidan olingan schyot – faktura bo'yicha bo'yoqning umumiy qiymati 1350000 so'mni, shu jumladan QQS 225000 so'mni tashkil qiladi.

Ko'rib chiqilayotgan vaziyatda bo'yoqning haqiqiy tannarxi 1125000 ming so'm(1350000-225000) va hisob bahosi 1500000 ming so'm(100x15000) o'rtasidagi farq 375000 ming so'mni tashkil qiladi.

1-jadval

“Oliy nav” MCHJ da amalga oshirilgan operatsiyaning buxgalteriyada aks ettirilishi¹²

T / R	Xo'jalik operatsiyalarining mazmuni	Summa, ming so'm	Schyotlar korrespondensiyasi	
			debet	kredit
1	Bo'yoq hisob bahosi bo'yicha kirim qilindi	1500000	1050	1510
2	Bo'yoqning xarid qiymati mol yetkazib beruvchining schyot – fakturasi asosida aks ettirildi	1125000	1510	6010

¹² Muallif tomonidan tuzilgan.

3	Bo'yoq bo'yicha QQS hisobga olish uchun qabul qilindi	225000	4410	6010
4	Materiallar hisob bahosining haqiqiy tannarxidan oshishi (ortiqcha xarajat) hisobdan chiqarildi	375000	1510	1610

Xarid qilingan materiallar bo'yicha QQS hisobi korxona QQS to'lovchisi hisoblanishiga bog'liq:

- QQS to'lovchisi hisoblanmagan korxonalar uning summasini xarid qilingan TMZ tannarxiga kiritadilar;
- QQS to'lovchi korxonalar xarid qilingan TMZ qiymatida to'langan QQS summasini hisobga olish uchun qabul qiladilar.

Qo'shilgan qiymat solig'i summasini hisobga olishga qabul qilish uchun asos bo'lib schyot –faktura hisoblanadi.

Materiallar harakati bilan bog'liq muomalalarni o'z vaqtida hujjatlarda rasmiylashtirish ularning hisobini to'g'ri yuritishni ta'minlaydi. Korxonalarga materiallarning o'z vaqtida keltirilishini ta'minot bo'limi nazorat qilib boradi. Ta'minot bo'limi xodimlari mol yetkazib beruvchi korxonalar tomonidan shartnoma majburiyatlarining bajarilishini tekshirib, ularga materiallar kamomadi va sifati bo'yicha e'tirozlar va da'volar qo'yish, korxonaga o'z vaqtida yetib kelmagan yuklarni topish vazifalarini bajaradilar. Mol yetkazib beruvchilarning shartnoma shartlariga rioya qilishlari ustidan nazorat olib borish ishlab chiqarishni to'xtovsiz, o'z vaqtida davom etishini ta'minlaydi. Mol yetkazib beruvchilardan olingan schyot va boshqa hisob-kitob hujjatlari, eng avvalo, korxona buxgalteriyasiga topshiriladi, ular tekshiriladi, so'ngra o'z vaqtida ro'yxatga olinadi. Shundan so'ng bu hujjatlar korxonaning ta'minot bo'limiga topshiriladi. Har bir schyot bo'yicha uning to'lanishi yoki to'lanmasligi aniqlanadi. Agar shartnoma shartlariga mol yetkazib beruvchilar to'la amal qilgan bo'lsa, schyotni to'lashga rozilik beriladi. To'lanishi lozim bo'lgan schyot va boshqa hisob-kitob hujjatlari materialni qabul qilish uchun omborga beriladi. Materiallar korxonaga keltirilgunga qadar hamma hujjatlar

maxsus papkada saqlanadi. O'z vaqtida yuborilmagan materiallar to'g'risida ombor mudiri korxonaning ta'minot bo'limiga tegishli chora ko'rilishi uchun xabar beradi. Odatda, mol yetkazib beruvchi korxonalardan materiallarni ta'minot bo'limi ekspeditori yetkazib beradi. Mol yetkazib beruvchi yoki transport tashkilotlaridan materiallarni qabul qilganda ta'minotchi idish, plomba, tamg'a hamda materiallar sifatini tekshiradi. Agar tekshirish natijasida kamomad yoki yuklar sifati buzilganligi aniqlansa, mol yetkazib beruvchi yoki transport tashkilotiga da'vo qo'yish huquqini beradigan dalolatnoma tuziladi. Korxona o'zaro tuzilgan shartnomaga muvofiq mol yetkazib beruvchilardan kelgan materiallar uchun xisob-kitob, yuklash va boshqa yo'llanma hujjatlar (to'lov talabnomasi, schyot-faktura, tovar-transport yukxatlari) oladi. Korxonaga kelgan hujjatlar operativ xodim tomonidan kelgan materiallarni qayd qilish uchun ochilgan M-1 shaklidagi maxsus daftarda ro'yxatga olinadi hamda shartnomada ko'zda tutilgan talablarga mos kelishi nazoratdan o'tkaziladi. Mol yetkazib beruvchi yoki transport tashkiloti omboridan materiallarni olish uchun buxgalter ekspeditorga M-2, M-2a shakldagi ishonchnoma yozib beradi. Moddiy boyliklarni olishga beriladigan ishonchnoma — korxona mol yetkazib beruvchilaridan tovar -moddiy boyliklarni olish uchun o'z vakiliga beradigan hujjatidir. Ishonchnoma korxona rahbari va bosh buxgalteri tomonidan muhrlangan holda beriladi, so'ngra u M-26 shaklidagi maxsus daftarga qayd qilinadi. Ekspeditor esa ishonchnomani olishda daftarga imzo chekadi. Ishonchnomani olgan xodim materiallar olingandan keyingi birinchi kundan qoldirmasdan unga yuklatilgan vazifani bajarganligi hamda olingan materiallarni omborga topshirganligi to'g'risidagi hujjatlarni buxgalteriyaga topshirishi shart. Ishlatilmagan ishonchnomalar belgilangan muddati o'tab ketgandan keyingi kunda buxgalteriyaga topshiriladi. Muddati o'tib ketgan ishonchnomalar bo'yicha hisobot bermagan shaxslarga yangi ishonchnomalar berish man qilinadi. Materiallarni omborga ombor mudiri yoki omborchi qabul qiladi. Keltirilgan materiallar mol yetkazib beruvchining hujjatlari bilan muvofiq bo'lsa, omborchi M-4 shaklidagi kirim orderi tuzadi. Kirim

operatsiyalari soni kam bo'lganida, mol yetkazib beruvchining hujjatiga muhr qo'yishga ruxsat etiladi. Haqiqatda kirim qilingan materiallar va yuborilgan hujjatlar orasida tafovut aniqlansa, materiallarni qabul qilish dalolatnomasi rasmiylashtiriladi. Bu dalolatnoma mol yetkazib beruvchi yoki boshqa manfaatdor bo'lmagan korxona vakillari ishtirokidatuziladi. Dalolatnoma tuzilganida kirim orderi rasmiylashtirilmaydi. Ombordan sexlarga sarflash uchun beriladigan materiallarga limit-zabor kartalari, talabnoma hamda yukxatlar rasmiylashtiriladi. Materiallarning bir marotaba, kam takrorlanadigan xarajat qilinishi talabnomalar bilan rasmiylashtiriladi. Ushbu hujjat iste'molchi sex, bo'lim va uchastkalar tomonidan rasmiylashtiriladi. Ombordan sexlarga materiallar muntazam berib borilsa, u holda limit-zabor kartalari qo'llaniladi. Limit-zabor kartasi korxonaning ishlab chiqarish yoki reja bo'limi tomonidan yoziladi. Unda shu sex yoki uchastkaga berilishi lozim bo'lgan material ma'lum turining oylik cheklangan me'yori ko'rsatiladi. Cheklangan me'yor sex yoki uchastkaning ishlab chiqarish rejasi va shu sex yoki uchastkada materiallarni sarflash me'yori asosida aniklanadi. Limit kartasi ikki nusxada yoziladi, bir nusxasi omborga, ikkinchisi esa sexga beriladi. Limit yetmagan takdirda limitdan tashqari materiallar xarajati talabnoma bilan rasmiylashtiriladi. Materiallarning sarflanishi bo'yicha limitning shu tariqa belgilanishi me'yordan ortiqcha sarflar haqida korxona rahbarlariga o'z vaqtida xabar qilish imkonini beradi. Limit kartalarining qo'llanilishi hujjatlar sonini kamaytiradi va ularni qayta ishlashni yengillashtiradi. Materiallarning ichki ko'chishida, ya'ni bir ombordan ikkinchi omborga, bir sexdan ikkinchi sexga berilganida hamda chiqindilar omborga qabul qilinganida qabul qilish yukxatlari bilan rasmiylashtiriladi.

Korxonaning ishlab chiqarish ehtiyojlariga materiallarning chiqimi buxgalteriya hisobida ishlab chiqarish xarajatlarini hisobga oluvchi tegishli schyotlar debeti bilan korrespondensiyada 1000 – “Materiallar” guruhi schyotlari kreditida aks ettiriladi, ya'ni:

D-t Ishlab chiqarish xarajatlari (2010, 2310, 2510va hokazo)

K-t 1010—“Xom-ashyo va materiallar”.

Materiallarni ishlab chiqarishga berish yoki boshqacha chiqib ketishi quyidagi usullardan biri orqali hisoblangan bahoda amalga oshiriladi:

- har bir birlikning tannarxi bo'yicha;
- o'rtacha tortilgan qiymat(AVECO) bo'yicha;
- FIFO usuli bo'yicha.

Materiallarni hisobdan chiqarish tartibi korxonaning hisob siyosatida belgilanishi lozim.

Har bir birlik tannarxi usuli bo'yicha alohida tartibda ishlatiladigan materiallar(qaimmatbaho metallar, qimmatbaho toshlar) baholanadi. Bunday materiallarning birligi odatda yagona namunada bo'ladi.

O'rtacha tortilgan qiymat (AVECO) usuliga muvofiq, har bir birlikning qiymati davr boshiga o'xshash birliklarning o'rtacha tortilgan qiymatidan hamda davr mobaynida sotib olingan yoki ishlab chiqarilgan o'xshash birliklarning qiymatidan aniqlanadi. Materiallarning o'rtacha qiymati davriylik asosida (davriy hisob) yoki har bir qo'shimcha yetkazib berish jarayonida (uzluksiz hisob) hisoblanishi mumkin.

Davriy hisob tizimidan foydalanilganda TMZlarning balans hisobvaraqlaridagi qoldig'i inventarlash yakunlanmaguncha boshlang'ich darajada qoladi. Davr oxirida TMZlarning o'rtacha qiymati aniqlangandan so'ng balans hisobvaraqlaridagi qoldiq o'zgaradi.

“Oliy nav” MCHJ iyun oyi davomida bo'yoqni sotib olish va sarflash bo'yicha quyidagi operatsiyalarni amalga oshirgan:

- ✓ 2-iyunda 1 kg uchun 13400 so'm bahoda 50 kg bo'yoq olindi;
- ✓ 9-iyunda 1 kg uchun 13500 so'm bahoda 30 kg bo'yoq olindi;
- ✓ 12-iyunda ishlab chiqarishga 40 kg bo'yoq berildi;
- ✓ 20-iyunda ishlab chiqarishga 30 kg bo'yoq berildi;
- ✓ 25-iyunda 1 kg uchun 13750 so'm bahoda 20 kg bo'yoq olindi.

Korxonada 1-iyun holatiga bo'yoq zahiralari bo'lmagan.

Xo'jalik yurituvchi sub'ekt tomonidan uzluksiz hisob tizimi qo'llanilganda o'rtacha baho tovar-moddiy zahiralarni har bir yetkazishdan so'ng quyidagi formula bo'yicha aniqlanadi:

$$\frac{\text{Davr boshiga zahira qiymati} + \text{Kelib tushish qiymati}}{\text{Davr boshiga zahira miqdori} + \text{Kelib tushish miqdori}}$$

Davriy hisob tizimidan foydalanilganda TMZlarning balans hisobvaraqlaridagi qoldig'i inventarlash yakunlanmaguncha boshlang'ich darajada qoladi. Davr oxirida TMZlarning o'rtacha qiymati aniqlangandan so'ng balans hisobvaraqlaridagi qoldiq o'zgaradi.

2-jadval

Tovar-moddiy zahiralarning AVECO usulida uzluksiz tizimda hisobdan chiqarilishi¹³

Sana	Olindi	Berildi	Qoldiq
01.06			Yo'q
02.06	50x13400 =670000 so'm		50x13400 =670000 so'm
09.06	30x13500 =405000 so'm		80x13437,5*=1075000so'm
12.06		40x13437,5 =537500 so'm	40x13437,5 =537500 so'm
20.06		30x13437,5 =403125 so'm	10x13437,5 =134375 so'm
25.06	20x13750 =275000 so'm		30x13645,8**=409375so'm
Jami	100kg 1350000 so'm	70kg 940625so'm	30kg 409375 so'm

$$* \frac{670000 + 405000}{50 + 30} = 13437,5$$

$$** \frac{134375 + 275000}{10 + 20} = 13645,8$$

Tovar-moddiy zahiralarni AVECO usulida davriy tizimda hisobdan chiqarishda o'rganayotgan korxonamizda bo'yoqning o'rtacha qiymati quyidagicha aniqlanadi:

$$\frac{0 + 670000 + 405000 + 275000}{0 + 50 + 30 + 20} = 13500$$

Materiallarni FIFO usuli bo'yicha hisobdan chiqarish zahiralari oy davomida va boshqa davrda ularni sotib olish ketma-ketligi bo'yicha foydalaniladi degan

¹³ Muallif tomonidan tuzilgan.

taxmindan kelib chiqib hisoblangan bahoda amalga oshiriladi. Bu usul qo'llanganda oyning oxiriga zahirada turgan materiallarni baholash vaqtga ko'ra oxirgi sotib olingan materiallarning haqiqiy tannarxi bo'yicha amalga oshiriladi, sotilgan tovarlar, mahsulotlar, ish va xizmatlar tannarxida esa vaqtga ko'ra avval sotib olinganlarning tannarxi hisobga olinadi.

Xo'jalik yurituvchi sub'ekt tomonidan davriy hisob tizimi qo'llanilganda tovar-moddiy zahiralarning haqiqatda mavjudligi inventarlash natijalariga ko'ra aniqlanadi.

3-jadval

Tovar-moddiy zahiralarning FIFO usulida uzluksiz tizimda hisobdan chiqarilishi¹⁴

Sana	Olindi	Berildi	Qoldiq
01.06			Yo'q
02.06	50x13400 =670000 so'm		50x13400 =670000 so'm – 1-qavat
09.06	30x13500 =405000 so'm		30x13500 =405000 so'm – 2-qavat+50x13400 =670000 so'm – 1-qavat
12.06		40 kg: 40x13400=536000 so'm	30x13500 =405000 so'm – 2-qavat+10x13400 =134000 so'm – 1-qavat
20.06		30kg: 10x13400+ +20x13500=404000 so'm	10x13500 =135000 so'm – 2-qavat
25.06	20x13750 =275000 so'm		20x13750 =275000 so'm – 3-qavat+10x13500 =135000 so'm – 2-qavat
Jami	100kg 1350000 so'm	70 kg 940000 so'm	30 kg 410000 so'm

¹⁴ Muallif tomonidan tuzilgan.

TMZning hisobot davri boshiga qoldig'i + TMZning kirimi – TMZning hisobot davri oxiriga qoldig'i = Sotilgan TMZ tannarxi

FIFO usulida uzluksiz va davriy hisob tizimining yakuniy natijalari doimo bir-biriga teng bo'ladi.

Korxonalarining buxgalteriya hisobi va hisoboti ma'lumotlarining to'g'riligi ularning tovar-moddiy zahiralarini inventarizatsiya qilish bilan tasdiqlanadi. tovar-moddiy zahiralarini inventarizatsiya qilish " Inventarlashni tashkil etish va o'tkazish" nomli 19-son BHMS va "Tovar-moddiy zahiralar" nomli 4-son BHMS bilan tartibga solinadi. Inventarizatsiyadan ko'zlangan asosiy maqsad — tovar-moddiy zahiralarining natura va qiymat ko'rinishida amalda mavjud ekanligini aniqlashdan iborat. Inventarizatsiya qilish natijasida boyliklarning to'g'ri saqlanishi va berilishi, tarozi va o'lchov asboblarning holati, hisob yuritish tartibi va boshqalar tekshiriladi. Tovar-moddiy zahiralarini inventarizatsiya qilish bir yilda kamida bir marta amalga oshiriladi. Bundan tashqari, tovar-moddiy zahiralarining saqlanishini, ularni saqlash shart-sharoitlarini va omborda hisobga olish holatini nazorat qilish uchun inventarizatsiyalar o'rtasidagi davrda muntazam tekshirishlar va materiallarni tanlab inventarizatsiyalash o'tkazilishi kerak. Quyidagi holatlarda inventarizatsiya muddatidan oldin o'tkazilishi shart¹⁵:

- ✓ asosiy vositalar va tovar-moddiy boyliklar qayta baholanganda;
- ✓ moddiy javobgar shaxslar almashganda (ishlarni qabul qilish - topshirish kunida);
- ✓ o'g'irlik yoki suiiste'mol, shuningdek, boyliklarni ishdan chiqarish faktlari aniqlanganda;
- ✓ tabiiy ofatlar, yong'inlar, falokatlar yoki g'ayritabiiy sharoitlar yuzaga keltirgan boshqa favqulodda vaziyatlar yuz berganda;

¹⁵ " Inventarlashni tashkil etish va o'tkazish"19-son BHMS. "O'zbekiston Respublikasi Buxgalteriya hisobi milliy standartlari to'plami". T.: "NORMA", 2010. 231-bet

- ✓ xo'jalik yurituvchi sub'yekt tugatilganda (qayta tashkil etilganda) tugatish (ajratish) balansini tuzish oldidan va qonunchilikda nazarda tutilgan boshqa hollarda.

Inventarizatsiya qilish natijasida materiallar bo'yicha hujjatlardagi ma'lumotlar va haqiqiy qoldiqlar orasidagi farq solishtiruv qaydnomasida rasmiylashtiriladi.

2.3. Tovar-moddiy zahiralar hisobini takomillashtirish masalalari

Bizga ma'lumki, O'zbekiston Respublikasida tovar-moddiy zahiralarini buxgalteriya hisobida aks ettirish "Tovar-moddiy zahiralar" nomli 4-son BHMSga asosan olib boriladi. Mazkur hisob standartiga 2-son "Zahiralar" nomli buxgalteriya hisobining xalqaro standarti hamda tovar-moddiy zahiralar hisobiga doir xalqaro hisob hujjatlari ilmiy-amaliy asos bo'lib hisoblanadi.

"Zahiralar" nomli №2-son buxgalteriya hisobining xalqaro standarti 2005 - yil 1-yanvardan boshlab kuchga kiritilgan. Ushbu standart tovar- moddiy zahiralarini baholash va moliyaviy hisobotda haqiqiy tannarx sistemasi bo'yicha aks ettirish hamda moliyaviy hisobot tuzishda qo'llaniladi.

Tovar-moddiy zahiralarini sotib olish, saqlash va ulardan foydalanish texnologiyasi muhim ahamiyatga egadir. O'z vaqtida sotib olishning muhimligi shundaki, agar korxonada materiallar tamom bo'lib qolsa, unda ishlab chiqarish ham to'xtab qolishi mumkin. Ishlab chiqarishning to'xtab qolishi natijasida mahsulot ishlab chiqarilmaydi va shartnomalar bajarilmaydi. Buning oqibatida korxona katta miqdorda moliyaviy zarar ko'rishi mumkin, aksincha, tovar - moddiy zahiralar haddan tashqari ko'p sotib olinishi ularning saqlash xarajatlarini ortishiga olib kelishi mumkin.

Tovar -moddiy zahiralarini to'g'ri saqlash ularni yo'qolishi va buzilishidan asrash imkonini beradi. Buning uchun yetarli darajadagi ombor maydonlariga va to'g'ri saqlash sharoitlariga ega bo'lish kerak bo'ladi. Ishlab chiqarishda

materiallardan samarali foydalanishni ta'minlash uchun ularga bo'lgan munosabatlarni tegishli talablarga muvofiq tashkil qilish lozim bo'ladi.

Ishlab chiqarish natijalarini hisobga olish korxona zahiralar chiqimining qanday usuliva tizimini tanlab olishiga bog'liqdir. Bizga ma'lumki, zahiralarini hisobga olishning davriy va uzluksiz tizimlari mavjud. Odatda, zahiralarini hisobga olishning davriy usulidan foyalaniladi, biroq uzluksiz tizim yuqori samaradorlikka erishishga yordam beradi. Uning asosiy afzalliklaridan biri katta aniqlik hamda zahiralar ustidan yuqori nazorat o'rnatilishidadir. Lekin zahiralarining uzluksiz hisobini tashkil qilish va yuritish qimmatga tushadi. Shuning uchun ko'pchilik korxonalar zahiralarini hisobga olishning davriy tizimidan foydalanishadi.

Tovar-moddiy zahiralarini baholash usulini tanlashdagi asosiy muammolardan biri ularni balans hamda foyda va zararlar to'g'risidagi hisobotda qanday aks ettirishdadir. LIFO usuli foyda va zararlar to'g'risidagi hisobotni tuzish uchun ko'proq talabga javob beradi, chunki tovarlar realizatsiyasidan olinadigan daromadni ularning tannarxi bilan solishtirish imkonini yaxshiroq tarzda beradi. Biroq amaldagi bahoning oshishi yoki pasayishi sharoitida ishlab chiqarish zahiralarini qiymatini joriy balansda baholash uchun bu usuldan foydalanish maqsadga muvofiq emas. Balans tuzishda FIFO usulini qo'llash maqsadga muvofiqdir. Chunki ishlab chiqarish zahiralarini qiymati hisobot davri oxirida joriy bahoga yaqinroq, bo'ladi va korxona aktivini aniq aks ettiradi.

Tovar -moddiy zahiralarini korxona ishchi kapitalining bir qismi hisoblanadi. Korxona ishchi kapitalini ma'lum bir tartibga solib borishda ishlab chiqarish zahiralarini eng me'yoriy darajada ushlab turishi kerak. Shuning uchun rivojlangan mamlakatlar buxgalteriyasida ishlab chiqarish zahiralarining nafaqat hisobini olib borish, balki ularning nazorati, zahiralarini me'yoriy hajm darajasida bo'lishiga buxgalterlar alohida e'tibor berishadi. Korxonalar tarmoq faoliyatidan kelib chiqib ishlab chiqarish zahiralarini miqdorini belgilaydilar. Ishlab chiqarish zahiralarini me'yoriyligini eng yuqori va minimal darajada ushlab

turish bir qancha qiyinchiliklar tug'dirsada, har bir korxona imkoniyat darajasidan kelib chiqib ishlab chiqarish zahiralarini optimal darajada ushlab turishga harakat qilishi kerak.

Korxonada zahiralarini maksimal darajada ekanligini bilib korxona to'g'risida quyidagi xulosalarga kelish mumkin:

- mol yetkazib beruvchilar bilan turli xil muammoli vaziyatlar vujudga kelganda ham ishlab chiqarishni davom ettirish mumkin. Chunki ishlab - chiqarish uchun yetarli darajada zahiralar mavjud;
- turli xil savdo chegirmalarini olishga imkon yaratadi. Chunki firmada ma'lum davrgacha ishlab chiqarish zahiralarini sotib olishga ehtiyoj tug'ilmaydi va bu holatda turli xil chegirmalar berilsagina korxona ishlab chiqarish zahiralarini sotib olishi mumkin;
- ishlab chiqarishni to'xtat qolishiga bo'lgan ishonch kamroq darajada bo'ladi, chunki korxona faoliyat yuritishi va mahsulot ishlab chiqarishi uchun yetarli ishlab chiqarish zahiralariga ega.

Korxonada zahiralarini maksimal darajada bo'lishining salbiy tomonlari:

- saqlash xarajatlari ko'payadi;
- zaxiralarga sarflangan pul mablag'lari miqdori ko'payadi, natijada mablag'lar likvidliligi pasayadi;
- uzoq saqlangan zahiralar sifati yomonlashadi.

Iqtisodiyoti rivojlangan mamlakatlar korxonalarini hisob siyosatida xarajatlari va ularga mos daromadlarga alohida e'tibor berilib, ayni bir hisobot davri xarajatlari bilan daromadlari solishtirilib, foydani aniqlashadi va foydani maksimallashtirishga qaratilgan omilli tahlilni amalga oshiradilar, hamda asosiy urg'uni tannarxni me'yoriy chegarada ushlab turishga va uni minimallashtirishga qaratadilar. Maxsulotlar tannarxiga esa bevosita ishlab chiqarish zahiralarining bahosi va tarkibiy o'zgarishi ta'sir ko'rsatadi. Shunday ekan hisobot davri oxirida qolgan ishlab chiqarish zahiralarini qiymatiga qarab quyidagi xulosalarga kelish mumkin:

- agar hisobot davri oxirida qolgan ishlab chiqarish zahiralarining bahosi qanchalik yuqori bo'lsa, realizatsiya qilingan mahsulotlarning tannarxi shunchalik past bo'ladi va bu o'z navbatida foydani ko'proq ko'rsatilishiga asos bo'lib xizmat qiladi;
- bunga qarama-qarshi ravishda esa, hisobot davri oxirida qolgan ishlab chiqarish zahiralarining bahosi qanchalik past darajada bo'lsa, realizatsiya qilingan mahsulotlarning tannarxi shunchalik yuqori ko'rsatiladi va bu o'z navbatida foydani kamroq ko'rsatilishiga asos bo'lib xizmat qiladi.

Biz hisobot davri oxirida qolgan zahiralar umumiy hajmi summasiga bog'liq ravishda sotilgan mahsulotlar tannarxining qaysidir qismini sof realizatsiya summasidan chegirishimiz lozim va qaysidir qismini kelgusi hisobot davriga boshlang'ich zahira sifatida qolgan mahsulotlar tannarxiga o'tkazishimiz kerak.

Demak, zahiralar bahosi ikki ketma-ket davr moliyaviy natijasiga ta'sir etadi. Bu ta'sir esa bevosita zahiralarini baholash usullaridan kelib chiqadi. Moliyaviy hisobot uchun tovar-moddiy zahiralarini baholashning bir qancha usullari amal qiladi. Ularning asosiy qismi ishlab chiqarish zahiralarining tannarxiga yoki sof sotish bahosiga tayanadi. Bu baholash esa buxgalteriya hisobining xalqaro va milliy standartlariga, ya'ni 2-BHXS «Zahiralar» va 4-BHMS «Tovar-moddiy zaxiralar»ga asoslanadi. Tovar-moddiy zahiralarini tannarxida yoki sof sotish bahosida hisobga olish ham foyda solig'i summasini to'g'ri aniqlash imkonini beradi.

O'zbekiston amaliyotida ko'pgina korxonalar FIFO usulidan foydalanadilar. Chunki bu usuldan foydalanish va bu usulda hisob- kitobni olib borish sodda, tushunarli hamda respublikamiz sharoitlariga mos kelishi milliy standartlar tomonidan tavsiya sifatida keltirib o'tilgan.

FIFO usuli shunday fikrga asoslanadiki, birinchi navbatda xarid qilingan zahiralar birinchi navbatda ishlab chiqarishga berilishi kerak. Bu zahiralarini baholashda qo'llaniladigan birinchi xarid – birinchi chiqim usuli deb ataladi.

LIFO usulini qo'llashda birinchi navbatda ishlab chiqarishga berilgan zahiralarining tannarxini aniqlash uchun oxirgi xarid qilingan zahiralarining

qiymatini asos qilib olinadi. Hisobot davrining oxiridagi tovar-moddiy zahiralar esa birinchi xarid qilib olingan zahiralar narxida baxolanadi. LIFO usulini qo'llash natijasida inflyatsiya davrida foyda kam ko'rsatiladi va deflyatsiyada esa sof foyda summasi ko'p ko'rsatiladi. Inflyatsiya davrida foydaning kam ko'rsatilishi foyda solig'i summasini ham kamaytirib yuboradi, chunki soliqqa tortiladigan bazaga sotilgan mahsulot tannarxi bevosita ta'sir ko'rsatadi va LIFO usulida hisoblangan mahsulot tannarxi boshqa usullarda hisoblangan tannarxdan yuqori bo'ladi. Shuning uchun ko'pgina mamlakatlarda, shuningdek buxgalteriya hisobining xalqaro standartlarida ham soliq nuqtai nazaridan kelib chikib LIFO usulini qo'llashga ruxsat berilmagan. Shu jumladan O'zbekiston Respublikasida ham bu usulni qo'llashga ruxsat berilmagan.

Ushbu usullardan eng maqbulini tanlash uchun "Oliy nav" MCHJda mart oyi davomida omborga kiritilgan mahsulotlarning sotilishini ko'ramiz.

- ✓ 10-martda 1 dona uchun 338 so'm bahoda 1400 dona;
- ✓ 20-martda 1 dona uchun 345 so'm bahoda 1450 dona;
- ✓ 30-marta 1 dona uchun 350 so'm bahoda 1500 dona.

Oy oxirida omborxonada 80 dona mahsulot bor edi. Sotishdan kelgan sof tushum 2348500 so'mni tashkil etdi.

4-jadval

TMZlarni hisobdan chiqarish usullarini taqqoslash¹⁶

Ko'rsatkichlar	FIFO usuli	AVECO usuli	LIFO usuli
Sotishdan olingan daromad	2348500	2348500	2348500
Sotishga tayyor bo'lgan mahsulot tannarxi	1498450	1498450	1498450
Davr oxiridagi TMZ	28000	27558	27040
Sotilgan mahsulot tannarxi	1470450	1470892	1471410

¹⁶ Muallif tomonidan tuzilgan.

6-chizma. Moliyaviy hisobot moddalarini LIFO usulidan FIFO usuliga
korrektirovkasi¹⁷

Bundan tashqari milliy korxonalarimiz rivojlanish sari borar ekan bevosita o'z mahsulotlarini eksport qilishga, tashqi bozorlarni egallashga harakat qiladi va natijada mamlakatimizga ma'lum bir miqdorda xorijiy investitsiyalar kirib keladi. Xalqaro amaliyotdan ma'lumki, korxonalar investorlarga moliya- xo'jalik faoliyatini biroz sun'iy ravishda barqaror va natijaviyligini yaxshiroq hamda mablag'lar likvidliligini yuqoriroq qilib ko'rsatadilar. Bunda ular moliyaviy hisobot moddalari summalarini biroz sun'iy ravishda, lekin qonuniy xolatda o'zgartirib ko'rsatadilar. Sun'iy ravishda o'zgartirish – bu investorlarni jalb qilish maqsadida moliyaviy hisobotlarni barqaror qilib ko'rsatishda boshqa usullardan foydalanib korxonaning real imkoniyatlarini, rivojlanishning turli yo'llarini ko'rsatib berishdir.

Bevosita 4-jadval ma'lumotlari asosida quyidagi ketma-ketlikda LIFO usulining FIFO usuliga korrektirovkasini ko'rib o'tamiz.

1. LIFO zahira FIFO zahiraga korrektirovkasi:

$$\text{LIFO}_{\text{zahira}} = 27040; \text{FIFO}_{\text{zahira}} = 28000;$$

$$\text{LIFO}_{\text{rezerv}} = \text{FIFO}_{\text{zahira}} - \text{LIFO}_{\text{zahira}} = 28000 - 27040 = 960.$$

$$\text{FIFO}_{\text{zahira}} = \text{LIFO}_{\text{zahira}} + \text{LIFO}_{\text{rezerv}} = 27040 + 960 = 28000.$$

2. LIFO taqsimlanmagan foyda FIFO taqsimlanmagan foydaga korrektirovkasi
Soliq stavkasi 10 % deb olindi.

$$\text{LIFO}_{\text{taq.foyda}} = \text{LIFO}_{\text{YaF}} - \text{LIFO}_{\text{YaF}} * \text{soliq stavkasi} = 877090 - 877090 * 10\% = 789381$$

¹⁷ G.P.Raxmanova. "Tovar-moddiy zahiralarini baholashning konseptual asoslari va auditini tashkil qilish". Iqtisod magistri darajasini olish uchun Dissertatsiya. – T.:2006

$$\text{FIFO}_{\text{taq.foyda}} = \text{LIFO}_{\text{taq.foyda}} + \text{LIFO}_{\text{rezerv}} * (1 - \text{solik stavkasi}) = 789381 + 960 * 0,9 = 790245$$

3. LIFO soliq majburiyatlarini FIFOga korrektirovkasi

$$\text{FIFO}_{\text{solik majb}} = \text{LIFO}_{\text{solik majb}} + \text{LIFO}_{\text{rezerv}} * \text{solikstavkasi}.$$

4. LIFO sotilgan mahsulot tannarxi FIFO ga korrektirovkasi

$$\text{FIFO}_{\text{tannarx}} = \text{LIFO}_{\text{tannarx}} - \text{LIFO}_{\text{rezerv}} = 1471410 - 960 = 1470450.$$

5. LIFO sof foydasi FIFOga korrektirovkasi

$$\text{FIFO}_{\text{sof foyda}} = \text{LIFO}_{\text{sof foyda}} + \text{LIFO}_{\text{rezerv}}.$$

Demak, yuqoridagi chizma va hisob-kitoblardan ko'rinib turibdiki xo'jalik yurituvchi sub'ektlarda moliyaviy hisobotlar qaysi usulda tuzilib topshirilishiga qarab hisobotlar moddalari bir usuldan ikkinchi usulga korrektirovka qilinadi va investorlarga korxonaning real imkoniyatlarini ko'rsatib berish imkoni vujudga keladi.

III BOB. TOVAR-MODDIY ZAHIRALAR AUDITINI TASHKIL ETISH VA TAKOMILLASHTIRISH MASALALARI

3.1. Tovar-moddiy zahiralarning auditini tashkil etish va o'tkazish tartibi

Xo'jalik yurituvchi sub'yektning moliyaviy hisobotini auditorlik tekshiruvidan o'tkazish audit jarayonini rejalashtirish orqali amalga oshiriladi.

Rejalashtirish audit o'tkazishning boshlang'ich bosqichi hisoblanib, audit o'tkazishning kutilayotgan hajmi, jadvallari va muddatlarini ko'rsatgan holda auditorlik tashkiloti tomonidan auditning umumiy rejasini ishlab chiqishdan, shuningdek, auditorlik tashkiloti tomonidan xo'jalik yurituvchi sub'yektning moliyaviy hisoboti to'g'risida xolis va asosli fikr shakllantirilishi uchun zarur bo'lgan auditorlik qoidalarini amalga oshirish hajmi, turlari va izchilligini belgilaydigan auditorlik dasturini ishlab chiqishdan iborat bo'ladi. "Auditorlik faoliyati to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi qonuni, 3-son "Auditni rejalashtirish" auditorlik faoliyati milliy standarti rejalashtirish jarayonini me'yoriy tartibga solish unsuri hisoblanadi.

Auditni rejalashtirish paytida auditorlik tashkiloti quyidagi asosiy bosqichlarni ajratishi kerak:

- ✓ dastlabki rejalashtirish;
- ✓ auditning umumiy rejasini tayyorlash va tuzish;
- ✓ audit dasturini tayyorlash va tuzish.

Auditorlik tekshiruvining muvaffaqiyatsizlik tavakkalchiligini kamaytirish maqsadida auditorlar va auditorlik tashkilotlari bo'lajak mijozlarni baholash uchun ishonchli mezonlarga ega bo'lishlari lozim. Mijozni atroflicha o'rganmagan holda tanlash yirik moliyaviy va ma'naviy xarajatlarga olib kelishi, tashkilot va auditorlar obro'siga putur yetkazishi mumkin. Bugungi iqtisodiyotni modernizatsiyalash sharoitida mijozlarni puxta o'rganib tanlab olish tizimiga ega bo'lishi ayniqsa muhimdir. Auditorlik tashkilotlar tomonidan mijozlarni tanlab olish bo'yicha asosiy muolajalar quyidagilardan iborat:

- ✓ tarmoq tavsifini baholash;

- ✓ rahbarlarning o'ziga xos bo'lgan tomonlarini aniqlash;
- ✓ audit o'tkazish uchun sarflanishi mumkin bo'lgan mehnat hajmi va murakkabligi hamda auditorlik tavakkalchiligiga oldindan baho berish;
- ✓ auditorlarning almashtirilishi yoki bir necha marotaba almashtirilishi sabablariga baho berish;
- ✓ audit natijalari bo'yicha avvalgi auditorlik xulosalaridagi sharhlar bilan tanishish;
- ✓ bo'lajak mijozning soliq idoralari, banklar, hamkorlar, aksiyadorlar va moliyaviy hisobotning boshqa foydalanuvchilar bilan o'zaro aloqalaridagi tavsiflari hamda muammolarini aniqlash;
- ✓ hisobotni tahliliy tekshirish;
- ✓ tegishli xodimlar mavjudligi, mijoz tarmog'ini bilishlik kabi nuqtai nazardan kelib chiqib, auditorlik firmasi yoki auditor ushbu ishni bajara olish imkoniyatini baholash.

O'zbekiston Respublikasi 3-son "Auditni rejalashtirish" auditorlik faoliyati milliy standartining 31-qismida keltirilishicha "Audit dasturi audit umumiy rejasini rivojlantirish hisoblanadi va audit rejasini amalda ro'yobga chiqarish uchun zarur bo'lgan auditorlik rusum-qoidalari mazmunining batafsil ro'yxatini o'zichiga oladi. Dastur auditor yordamchilari uchun batafsil yo'riqnoma bo'lib xizmat qiladi va bir vaqtning o'zida auditorlik tashkiloti va auditorlik guruhining rahbarlari uchun ish sifatini nazorat qilish vositasi hisoblanadi"

Auditor auditning umumiy rejasini amalga oshirish uchun kerakli bo'lgan, rejalashtirilgan auditorlik muolajalarining tavsifi, muddati va hajmini belgilovchi audit dasturini ishlab chiqishi va hujjatli rasmiylashtirishi lozim. Audit dasturi auditning har bir bo'limi bo'yicha belgilangan vazifalar va auditning turli jabhalari yoki muolajalariga ajratilgan soatlar miqdori ko'rsatilgan vaqt byudjetidan iborat bo'ladi.

Dasturda auditorlik tekshiruvini o'tkazish uchun kerakli bo'lgan xodimlar soni, ular ishining hajmi va mazmuni belgilanadi. Odatda auditni asosiy auditor, auditor yordamchilari va assistentlaridan iborat guruh amalga oshiradi. Moliyaviy hisobot moddalari to'g'riligini tasdiqlash maqsadida miqdoriy xatolar va kamchiliklarni tekshirish uchun operatsiyalar testlari ishlab chiqiladi.

Tadqiqot olib borayotgan "Oliy nav" MCHJda biz tovar-moddiy zahiralar auditini o'tkazishning umumiy rejasini ishlab chiqdik (2-ilova). Biz tadqiq qilayotgan korxonada audit umumiy rejasini amalda ro'yobga chiqarish uchun zarur bo'lgan auditorlik amallari mazmunining batafsil ro'yxatini o'z ichiga olgan audit dasturini ham ishlab chiqdik (3-ilova).


№50-sonli «Auditorlik dalillar» nomli AFMSning 16-bandiga muvofiq «auditorlik dalillarini xo'jalik yurituvchi sub'ektning ichki nazorat tizimini test sinovidan o'tkazish va mohiyati bo'yicha tekshirish amallarini o'tkazish yo'llari bilan olish mumkin»

Bizning fikrimizcha, auditorlik teshiruvlarini boshlashdan oldin tovar-moddiy zaxiralar hisobi bo'yicha buxgalteriya hisobi tizimi va ichki nazoratning ahvolini tekshirish zarur. Nazorat vositalari testlarining maqsadi shundan iboratki, ular xo'jalik yurituvchi sub'ekt nazorat vositalarining jiddiy kamchiliklarini aniqlashda yordam beradi. Buning uchun 1-ilovadagi savolnoma-test jadvalidan foydalanishni tavsiya qilamiz.

Auditorlar tekshiruv o'tkazish jarayonini ma'lum bir ketma-ketlikda amalga oshiradilar. Respublikamiz iqtisodchi olimi R.D.Do'smurotovning ta'kidlashicha, korxonalarda tovar-moddiy zahiralar bilan bog'liq xo'jalik muomalalarini auditorlik tekshiruvdan 7-chizmada ko'rsatilgan tartibda o'tkazish maqsadga muvofiqdir.

Tovar-moddiy zahiralarining tushumi va kirim qilinishi mol etkazib beruvchilar bilan tuzilgan shartnomalar va kuzatib boruvchi hujjatlar (tovar-transport nakladnoylari, schyot-fakturalar, qodoqlash yorliqlari, sifat guvohnomasi, qabul kvitantsiyasi va boshqalar) asosida tekshiriladi.

Tovar-moddiy zahiralarning to'liq kirim qilinishini tekshirish chog'ida auditor mol etkazib beruvchilar bilan hisob-kitoblarning shakllari va shartlarini, tanlangan baholash usulini, sotib olingan qiymatliklar bo'yicha QQSni qoplash tartibini hisobga olishi zarur.



7-chizma. Tovar-moddiy zahiralari auditini o'tkazish ketma-ketligi¹⁸

Tovar – moddiy zahiralarni auditorlik tekshirish buxgalteriya hisobining materiallar bo'limi bilan tanishishdan boshlanadi, ya'ni boyliklar harakatining buxgalteriya hisobini kim yuritadi, mazkur uchastka buxgalteri qanday me'yoriy hujjatlardan foydalanadi, ushbu buxgalter kimga hisobot topshiradi, uni bajarayotgan ishini kim tekshiradi, hujjatlar aylanma chizma rejasi, grafik holda to'ldirilgan boshlang'ich namunaviy hujjatlar ro'yxati va namunalari keltirilgan albomning mavjudligi, hisobning mazkur uchastkasi bo'yicha hisob siyosatida

¹⁸Muallif tomonidan tuzilgan.

tashkiliy uslubiy va texnik jihatlarining asosliligi, maqbulligi va tanlashning maqsadga muvofiqliligi, schyotlardagi qimmatliklarning harakati hisobini yuritish chizmalarining mavjudligi, materiallarning haqiqatda sarflanishida me'yorlardan tafovutlarni tekshirish uchun ichki nazoratning qanday usullaridan (inventarlash, hujjatlashtirish, turkumli ochib berishlar) foydalaniladi, qimmatliklar inventarizatsiyasini o'tkazish muddatlariga va inventarlash natijalarini rasmiylashtirish tartibiga rioya etilganmi, doimiy faoliyat yurituvchi inventarlash komissiyasi, komissiya tarkibi to'g'risida buyruqlar, hujjatlarni (xususan ishonchnomalarni) ro'yxatga olish daftari, jurnallarining mavjudligi, ombor mudirlari, omborchilar va tovar-moddiy boyliklar hisoboti berish uchun topshirilgan boshqa shaxslar bilan moddiy javobgarlik to'g'risida rasmiylashtirilgan shartnomalarning mavjud ekanligiga ishonch hosil qilinishi lozim.

Tezkor va xizmat yuzasidan uzatiladigan axborotlar ham auditorlik tekshiruvning ob'ekti hisoblanadi, ya'ni kelgan yuklarni hisobga olish jurnalidan moddiy qiymatliklarning assortimenti va yetkazib berish muddatlari to'g'risidagi ma'lumotlarni mol etkazib beruvchilar bo'yicha olish mumkin. Auditor bunday hisobning mijoz-korxonada qanday tashkil etilganligini o'rganadi. Xususan, har bir mol etkazib beruvchi bo'yicha shartnomada materiallarning yetkazib berilish muddatlari va assortimenti ko'rsatilayotganligi, hamda haqiqatda olingan materiallarning assortimenti, olinish sanasi ko'rsatilgan holda qabul qilinganligi tekshiriladi. Operativ hisobda keltirilgan axborotlarning ishonchliligini aniqlash uchun auditor ularni buxgalteriya hisobida aks ettirilgan ma'lumotlar bilan taqqoslaydi. Kelayotgan yuklarni hisobga olish jurnali va mol etkazib berish shartnomalarini hisobga olish kartochkalaridagi yozuvlar bo'yicha auditor tekshirilayotgan davr ichida qanday mol etkazib berishlar amalga oshirilganligini aniqlashi mumkin.

6010 - «Mol etkazib beruvchilar va pudratchilarga to'lanadigan schyotlar» (joriy qismi) va 7010 - «Mol etkazib beruvchilar va pudratchilarga to'lanadigan schyotlar» (uzoq muddatli qismi) bo'yicha sintetik hisob registrlari

ma'lumotlari, hamda omborxonalarining kirim hujjatlari bo'yicha auditor olingan materiallarning miqdorini va yuklarni qabul qilishning to'g'ri rasmiylashtirilishini aniqlaydi. Buning uchun mol etkazib beruvchilarning puli to'langan schyotlari va boshqa to'lov hujjatlarini kirim orderlari, qabul qilish dalolatnomalari, hamda omborxona hisobi kartochkalaridagi yozuvlar bilan taqqoslaydi.

Moddiy boyliklarning to'liq kirim qilinganligini tekshirishda ichki hujjatlar mol etkazib beruvchilarning kuzatib boruvchi hujjatlari bilan solishtiriladi. Auditor olingan moddiy boyliklar sifati va miqdoridagi tafovutlarning dalolatnomalar bilan to'g'ri rasmiylashtirilganligi va mol etkazib beruvchilarga yoki transport tashkilotlariga o'z vaqtida da'vo qo'zg'atilganligini o'rganadi. Ayrim hollarda bunday tafovutlar moddiy boyliklarni o'zlashtirish va kamomadni yashirish maqsadida qalbaki dalolatnomalarni rasmiylashtirish oqibatida yuzaga kelishi mumkin.

Korxonaga tegishli bo'lmagan, ammo uning ixtiyorida saqlanayotgan yoki ishlatilayotgan tovar-moddiy zahiralar shartnomalar shartlariga muvofiq, shartnomada ko'rsatilgan bahoda balansdan tashqari schyotlarda aks ettiriladi. Ma'sul saqlash uchun qabul qilingan moddiy boyliklar, hamda buyurtmachining xom ashyosi sifatida qayta ishlashga qabul qilingan xom ashyo va materiallar korxonaning o'ziga tegishli ishlab chiqarish zahiralaridan alohida saqlanishi va hisobga olinishi lozim. Bunday moddiy boyliklar №21 BHMS ga muvofiq 002 - «Ma'sul saqlashga olingan tovar-moddiy boyliklar» va 003-«Qayta ishlashga qabul qilingan materiallar» degan balansdan tashqari schyotlarda hisobga olinishi lozim.

Tovar-moddiy zahiralarini auditorlik tekshiruvidan o'tkazish chog'ida auditor olinayotgan moddiy boyliklar bo'yicha QQSning hisobda aks ettirilishini ham tekshiradi.

Mol etkazib beruvchining hisob-kitob hujjatlarida alohida qator bilan ajratib ko'rsatilib, xaridor korxonaga to'lov uchun taqdim qilinadigan QQS summasi 4410 - «Soliqlar va yig'imlar bo'yicha bo'nak to'lovlar» schyotining debeti va

6010 - «Mol etkazib beruvchilar va pudratchilarga to'lanadigan schyotlar» schyotining kreditida aks ettiriladi. To'langan QQS summalari ishlab chiqarish zahiralarning sotib olish qiymatiga kiritilmaydi ya'ni 1010-1090 yoki 1510 schyotlar debetiga olib borilmaydi.

Ayrim korxonalarda idishlar soni va ularning qiymati katta miqdorni tashkil etadi. Auditor idishlar qiymatining to'g'ri shakllanganligi va hisobda aks ettirilganligini tekshiradi. Sintetik hisobda idishlar, ularni sotib olish uchun ketgan barcha xarajatlardan tashkil topadigan haqiqiy tannarxi bo'yicha aks ettirilishi mumkin. Shuningdek, idishlarni buxgalteriya hisobi schyotlarida aks ettirishning to'g'riligi ham tekshiriladi.

Transport shaklidagi idishlarni aylanuvchanlik hususiyatiga ko'ra ikkita asosiy toifaga bo'lish mumkin:

1. bir marta aylanadigan - sotib olish bahosi mol etkazib beruvchida sotiladigan materiallarning qiymatiga qo'shilgan idishlar bo'lib ular mol etkazib beruvchilarga qaytarilmaydi;

2. ko'p marta aylanadigan - muomalada bir necha marta bo'ladigan idishlar, mol etkazib berish shartnomasiga muvofiq bunday idishlar mol etkazib beruvchilarga qaytariladi.

«Qaytariladigan» va «qaytarilmaydigan» idish tushunchasi faqatgina sotuvchi va xaridor o'rtasidagi shartnoma bilan tartibga solinadi.

Tovar bilan birgalikda yetkazib beriladigan, ayrim turdagi ko'p marta aylanadigan tovarlar uchun xaridordan garov olinib, u bo'shatilgan idish qaytib olinganidan so'ng xaridorga qaytariladi. Idishlarning garov qiymati mol yetkazib beruvchilarning kuzatib boruvchi hujjatlarida alohida satr bilan ajratib ko'rsatiladi. Garov bahosi bilan aylanib yuradigan ko'p marta aylanadigan idishlar mol yetkazib beruvchining mulki bo'lib qoladi. Sotuvchi uni sotishni, xaridor esa sotib olishni mo'ljallamagan. Idishlar uchun garov to'lash idishlarni qaytarib berishni ta'minlash vositasi bo'lib hisoblanadi.

Tovarlar ko'p marta aylanadigan idishlarda sotilganida mol etkazib berish shartnomasi shartlariga xaridorning ushbu idishlar hammasini yoki ma'lum bir

qismini qaytarish majburiyati kiritiladi. Agar idishlar mol etkazib beruvchiga shartnomada ko'rsatilgan muddatda topshirilmasa, idishlarning garov qiymati xaridorga qaytarilmaydi.

Idishlar analitik hisobi ularning har bir turi bo'yicha nomma-nom yuritilishi kerak. Auditor uni tekshirish chog'ida moddiy javobgar shaxslarning hisobotlari va saldo vedomostlari bo'yicha ma'lumotlarni taqqoslash yo'li bilan xatolarni aniqlashi mumkin.

Ichki xo'jalik nazoratining asosiy kamchiligi – tovar - moddiy boyliklarining harakati ustidan haqiqatdagi nazoratning mavjud emasligidir va shu boisdan ham tekshirishning keyingi bosqichi TMZlarni inventarlash bo'lishi kerak.

Inventarlashning boshlanishiga qadar auditorinventarlanadigan qimmatliklar ro'yxatini tuzishi, tashkilot rahbari bilan komissiya tuzish to'g'risida kelishib olishi (komissiya tarkibiga buyruq bo'yicha moddiy javobgar shaxslar bilan bir qatorda tashkilot vakillari, mutaxassislar, buxgalteriya xodimlari ham kiritilishi zarur), moddiy javobgar shaxslardan qimmatliklarning inventarlash boshlanishi sanasiga bo'lgan kirim qilinishi va chiqarilishi (xarajat qilinishi) bo'yicha hisobotlar tuzishlarini va ularni tashkilot buxgalteriyasiga, bir nusxadan esa - auditorga topshirishlarini talab qilishi, moddiy javobgar shaxslardan qimmatliklarning kirim qilinishi yoki sarflanishiga taalluqli barcha hujjatlarning buxgalteriyaga topshirilganligining va ularda hech qanday kirim qilinmagan yoki xarajatlari hisobdan chiqarilmagan TMZning qolmaganligi to'g'risida tilxatni olishi, TMZsotib olish yoki ularning olinishiga oid ishonchnomalarga bo'lgan hisobot topshiriladigan summalariga ega bo'lgan shaxslardan shunga o'xshash tilxatlarni olishi kerak.

Inventarlash chog'ida auditor omborxonalarining o'z maqsadiga ko'ra foydalanilayotganligini, TMZlar omborlarga to'g'ri joylashtirilayotganligini aniqlashi, ombor xonalarining talablarga javob berish-bermasligini, ular qanday qo'riqlanayotganligini tekshirib ko'rishi, qimmatliklarning usti ochiq maydonlarda yoki ixtisoslashtirilmagan xonalarda saqlanmayotganligi va buning

natijasida ular yaroqsiz bo'lib qolishlariga duch kelish mumkin emasligini va boshqalarni aniqlashi zarur.

Inventarlash komissiya tomonidan barcha rusum-qoidalar bajarilayotganligiga ishonch hosil qilish, zahiralarining, agar bu zarur bo'lsa, qayta hisob-kitob qilinishi, o'lchanishi, tortilishini talab qilish, hisobda qabul qilingan o'lchov birliklarida moddiy javobgar shaxslar bo'yicha va joylashish (saqlanish) joyiga ko'ra tuziladigan inventarlash ro'yxatlarida TMZning har bir turi bo'yicha inventarlash natijalarini qayd etish, boshqa tashkilotlarga tegishli bo'lgan qimmatliklar bo'yicha alohida ro'yxat tuzishi, so'ngra esa muqobil tekshirish yo'li bilan ular kimga tegishli ekanligi va nima uchun boshqa firmaning omborida saqlanayotganligini aniqlash, moddiy boyliklarning raqamlari, markalari, nomlariga, ularning pasport va kirim hujjatlarida ko'rsatilgan raqamlar va markalarga muvofiqligiga (raqamlari va markalari pasport hamda kirim hujjatiga aynan bir xil bo'lishi kerak bo'lgan avtomobillarga, traktorlarga va shu kabilarning ehtiyot qismlariga tegishli) alohida e'tiborni qaratish, ayrim zahiralar (yem-xashak, urug'liklar va shu kabilar) bo'yicha zarurat tug'ilganda sifati laboratoriyada tahlil qilish uchun namunalar olinishini amalga oshirishi zarur. Namunaning bir nusxasi tegishli idishda laboratoriyaga tahlil qilish uchun topshiriladi, ikkinchisi esa auditorga uni topshiruvchi tashkilotdan tilxat yozdirib olingan holda qoldiriladi. Tekshirish uchun olib qo'yilgan namunalar yuzasidan tashkilotning nomi, namunaning og'irligi, hajmi, olingan joyi, saqlash joyidagi havoning harorati, namlik darajasi va boshqalar ko'rsatiladigan dalolatnoma tuziladi. Tanlab olish dalolatnomasini komissiya a'zolari, auditorlar va moddiy-javobgar shaxs tomonidan imzolanadi, hisob ma'lumotlaridan chekinish holatlari aniqlangan TMZlar bo'yicha buxgalteriyada solishtirish qaydnomalari (bosh buxgalter va moddiy javobgar shaxs tomonidan imzolanadigan) tuzilish - tuzilmasligini belgilashi, moddiy javobgar shaxslardan TMZ tarkibida aniqlangan kamomadlar va ortiqchaliklarning sabablari to'g'risida yozma ravishda tushuntirishlar olishi, qimmatliklardagi aniqlangan kamomadlar va ortiqchaliklarni hisobda to'g'ri aks

ettirilganligini tekshirib ko'rish, keyinchalik, tekshirish o'tkazilishi chog'ida foydalaniladigan ishchi hujjatlarning ko'chirma nusxalarini saqlab qo'yishi kerak.

Bu yerda shuni nazarda tutish kerakki, tabiiy yo'qolishlarning hisobdan chiqarilishi belgilangan me'yorlar doirasida faqat aniqlangan kamomadlar yuzasidangina amalga oshirilishi mumkin. Inventarlash o'tkazib bo'linganidan so'ng TMZni kirim qilishning to'liqligi, hisobdan chiqarilishi, baholanishi va hisobga olinishining to'g'riligini tekshirib ko'rishning o'tkazilishi maqsadga muvofiqdir.

Tekshirishning borishi chog'ida auditoromborhisobining to'g'ri yuritilayotganligini, kartochkalarda ombormudiri tomonidan amalga oshirilgan yozuvlarning asoslanganligini tekshirib ko'rish, chetdan kelib tushgan materiallarning to'liq kirim qilinganligini, to'g'ri hisobdan chiqarilganligini tekshirib ko'rish kerak. TMZlarni kirim qilish va hisobdan chiqarish tartibini buzishlar mahsulotlarning talon-taroj qilinishiga, shuningdek, keyinchalik hisobga olinmagan mahsulotlar tayyorlanadigan yoki ularni daromadlarga soliq solinishidan yashirib qolish va olingan mablag'larni o'zlashtirish maqsadida hisobda ushbu operatsiyalarni aks ettirmasdan sotib yuboriladigan xom-ashyolarning ortiqcha miqdorlari hosil qilinishiga olib keladi.

Tovar-moddiy zahiralarni aktivlarning boshqa har qanday turiga qaraganda xo'jalik faoliyatiga ko'proq ta'sir ko'rsatadi. Tekshiruv natijalarini umumlashtirib, auditor ishchi hujjatlarida to'plangan dalil-isbotlarni bir tizimga keltirishi zarur. Audit tekshiruvi nihoyasiga yetgach, tekshiruv natijasida olingan ma'lumotlar umumlashtiriladi hamda 70-son "Auditorlik hisoboti va moliyaviy hisobot to'g'risidagi auditorlik xulosasi" nomli auditorlik faoliyati milliy standartiga asosan rasmiylashtiriladi. Bajarilgan ishlar yuzasidan auditorlik hisoboti tuzilib, unda aniqlangan chetga chiqishlar va huquq buzilishlari batafsil yoritilib, ularni bartaraf etishga doir tavsiyalar beriladi. Auditorlik tashkiloti xo'jalik yurituvchi sub'ektning moliyaviy hisoboti uning moliyaviy ahvolini haqqoniy yoritadi hamda xo'jalik yurituvchi sub'ekt amalga oshirgan moliyaviy

va xo'jalik operatsiyalari O'zbekiston Respublikasining qonunchiligi talablariga muvofiq degan fikrga kelganda ijobiy, aksincha holatda esa salbiy auditorlik xulosasi tuzilishi bilan audit jarayoni yakunlanadi.

3.2. Tovar-moddiy zahiralar auditini o'tkazishda axborot texnologiyalarini qo'llash

Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqiroz sabablaridan biri moliyaviy institutlarning majburiyatlariga nisbatan ustav mablag'larining mutanosibligining keskin buzilishi, qimmatli qog'ozlar bo'yicha reyting tashkilotlari tomonidan soxta xulosalar berilishi, audit va professional etika tamoyillarining buzilishi va soxta audit xulosalari taqdim etilishi ekanligi barchamizga ma'lum. Bundan esa chetdan jalb etiladigan har qanday tahlil yoki audit ma'lumotlari hamda bashorat ko'rsatkichlari haqqoniy emasligi riski mavjudligini ko'rishimiz mumkin.

Iqtisodiyotni modernizatsiyalash sharoitida buxgalteriya hisobi va boshqa iqtisodiy axborotlarni to'liq hamda tezkor ravishda tahliliy qayta ishlash jarayonini hisoblash texnikasi vositalarisiz tasavvur qilish qiyin, albatta. Buxgalteriya hisobining avtomatlashtirilishi audit tadqiqotlarining keyinchalik amaliyotda rivojlanishi uchun mustahkam zamin yaratdi, zero auditning har qanday turi axborotlar bazasiga asoslanib, mazkur baza avvalambor buxgalteriya hisobi va hisoboti ma'lumotlaridan tarkib topadi.

Tovar-moddiy zahiralar auditini o'tkazishda axborot texnologiyalarining qo'llanilishi, o'z navbatida:

- hisob-kitoblarning vaqtida o'tkazilishini ta'minlaydi;
- operativ boshqaruv ma'lumotlarini olishni tezlashtiradi;
- moliyaviy tahlil imkoniyatlarini kengaytiradi.

Ma'lumki, asosan yirik korxonalarda majburiy auditorlik tekshiruvi o'tkaziladi. Ish yuritishning hozirgi sharoitida bunday korxonalarda buxgalteriya hisobini axborot texnologiyalarisiz olib borish ko'p mehnat talab etadi. Turli firma va xo'jalik sub'ektlarida hisob yuritish tizimini avtomatlashtirish o'ziga

xos ko'rinishga ega bo'ladi. Bugungi kunga kelib bir-biridan farq qiluvchi juda ko'plab buxgalteriya dasturlari paketi mavjud. Kompyuterlashtirilgan buxgalteriya hisobining eng soddasi barcha foydalanuvchilar uchun ma'lum bo'lgan "Excel" dasturi bo'lib, undan foydalanuvchilar turli hisobvaraqlar uchun alohida kirim va chiqim jadvallari, jurnal-orderlar tuzish orqali hisobot davri aylanmalarini aks ettirib, hisobot davri oxiridagi qoldiqni hisoblashni amalga oshiradilar. Excel dasturining asosiy kamchiligi sifatida ikki yoqlama yozuvni avtomatik tarzda amalga oshirish imkoni yo'qligini ko'rsatish mumkin. Bu dasturdan unchalik katta bo'lmagan korxonalar foydalanishi mumkin.

Bu kamchiliklar buxgalteriya hisobini yuritishga maxsus mo'ljallagan amaliy programma paketlarida hal etilgan. Bundan tashqari ular bir qancha qulayliklarni ham taqdim etadilar. Hozirgi kunda Respublikamizda keng ommalashgan "1C: Buxgalteriya", "BEM" dasturlari yordamida barcha sohalarida buxgalteriya hisobini yuritish imkoniyati mavjud. Chunki ularni turli sharoitlarga moslash imkonini beruvchi ichki til, ya'ni konfigurator mavjud bo'lib, uning yordamida turli xildagi hujjatlar, ular asosida tuziladigan buxgalteriya o'tkazmalari, hisobot shakllari tuzish hamda amalda qo'llash mumkin.

Korxonalarda hisobning avtomatlashtirilishi audit o'tkazish jarayoniga o'z ta'sirini o'tkazadi. Olimlarning tasdiqlashicha, kompyuter tizimi auditning 3 ta jarayoniga o'z ta'sirini ko'rsatadi:

- rejalashtirish;
- ichki nazorat tizimini o'rganish;
- xo'jalik operatsiyalarining bo'laklari, hisob schyotlaridagi qoldiqlar to'g'risidagi haqqoniy ma'lumotlarni yig'ish.

Kompyuter tizimi muhitida tovar-moddiy zahiralar auditining asosiy maqsadi – shu muhitda tayyorlangan ma'lumot tavakkalchiligini eng kam darajaga yaqinlashtirishdan iborat. Bu jarayonda auditorlar uchun tashkilotlarda quyidagilar ta'minlanishi lozim:

- kompyuter tizimida ma'lumotlarning to'laligi va o'z vaqtida yangilab turilishi;
- ma'lumotlarni tahlil qilish jarayonida bajarilgan operatsiyalarning nazorat yozuvlarini saqlaydigan tizimlaridan foydalanish;
- auditorlarning tizimiga kirishini va ularga tizim ishi uchun javobgar bo'lgan mutaxassislar yordami.

Tovar-moddiy zahiralarni auditorlik tekshiruvini amalga oshirishda auditorlik xulosasini berish uchun tizimning kuchli va zaif tomonlarni ko'rsatib, to'la ma'lumot olishga imkon beradigan aniq uslubiyotga amal qilish zarur.

Rejalashtirish tekshirish o'tkazishning boshlang'ich bosqichi hisoblanadi. Korxona va firmalar tomonidan turli xildagi kompyuter tizimlarining qo'llanilishi buxgalteriya hisobini yuritishning tuzilishiga va ichki nazorat uslubining xarakteriga katta ta'sir ko'rsatadi. Ma'lumotlarni qayta ishlashning avtomatlashtirilganlik darajasi, o'z navbatida, auditorlik mulojalarning mohiyatiga hamda ularning vaqt ichida taqsimlanishiga, qamrab olish darajasiga ham o'z ta'sirini o'tkazadi.

XX asr oxirlariga kelib korxona va tashkilotlarning xo'jalik yurituvchi sub'yektlar moliyaviy holati va faoliyatini tahlil qilish, ularning rivojlanish istiqbollari bashorat qilish jarayoni kompyuter dasturlari yordamida amalga oshirila boshlandi.

Ta'kidlash joizki, mazkur jarayonning hozirgi kunga qadar yanada rivojlanib borishini dasturiy ta'minot yordamidagi auditning tezkorligi, qulayligi, ishonchliligi, xolisligi bilan tushuntirish mumkin. Tabiiyki, kompyuter dasturlarining moliyaviy tahlil audit borasidagi afzalliklari katta hajm va miqdordagi amaliyotlarni amalga oshiruvchi xo'jalik yurituvchi sub'yektlar faoliyatini tahlil qilishda yaqqol namoyon bo'ladi.

Amaliy natija beradigan auditorlik muolajalarini ishlab chiqish uchun buxgalteriya hisobi tizimida amalga oshiriladigan muomalalarning ketma-ketligini o'rganish zarur. Ichki audit uchun javobgar shaxslardan buxgalteriya hisobi tizimini tushunish uchun foydali bo'lgan, muomalalar bajarilishining


ketma-ketligiga taalluqli bo'lgan tayyor hujjatlarga ega bo'lish mumkin. Shusababli, tekshirishni rejalashtirishning avvalida shunday hujjatlar mavjudligini aniqlash maqsadga muvofiq bo'ladi. Auditor, ma'lumotlarning barcha mumkin bo'lgan kombinatsiyalarini ko'ra bilishi uchun dasturlarni mantiqan fikrlashi, xo'jalik faoliyatining xarakterini yaxshi tasavvur eta olishi kerak. Bundan tashqari, nazorat ma'lumotlarning haqiqiylari bilan qo'shilib ketishi hamda fayllarning o'zgarishiga yo'l qo'ymaydigan ehtiyot choralari ham zarur.

So'nggi yillarga kelib auditning dasturiy ta'minotlari orasida yakuniy hamda bashoratli tahlil dasturlari bir muncha rivojlandi. "Inek-Analitik", "Investor", "Project Expert", shuningdek "Alt-Invest" dasturlarining mavjud funksional xususiyatlariga qaramasdan, mazkur dasturlar biznes rejalar va investitsion loyihalar tuzish, ularni baholash imkonini beradi. Mazkur dasturlar yordamida bashorat qilinayotgan moliyaviy hisobotlarni (buxgalteriya balansi, moliyaviy natijalar to'g'risidagi hisobot, pul oqimlari to'g'risidagi hisobot) shakllantirish, shuningdek turli tavakkalchilik sharoitlari va kredit so'ndirishning turli ko'rinishlarida NPV (sof joriy qiymat), IRR(foydaning ichki me'yori) ko'rsatkichlari kabi muhim ko'rsatkichlarni hisoblash imkoniyati mavjud.

Mazkur dasturiy ta'minotlarga "Pro-Invest IT" kompaniyasining "Audit Expert", "Inek" firmasining "Inek-AFSP", "Inek-ADP", "Inek-Analitik", "Telekom-Servis" informatsion texnologiyalar markazining "Ekspress-analiz" dasturlarini misol qilib keltirishimiz mumkin.

Mazkur dasturlardan "Audit Expert" boshqalarga nisbatan o'ziga xos xususiyatlarga ega desak mubolag'a bo'lmaydi. Mazkur dasturning yaratuvchilari uni korxonaning moliyaviy holatini tahlil qilish, baholash va monitoring qilish uchun tahliliy tizim sifatida hisoblaydilar. Haqiqatan ham, mazkur dastur yordamida korxona boshqaruviga ichki moliyaviy tahlil o'tkazish imkoniyatini yaratib, nazorat qiluvchi tashkilotlar, aksiyadorlar va kreditorlar nuqtai nazaridan korxona holatini ko'rish imkoniyati mavjud.

Tahlil o'tkazish uchun bazaviy axborot bo'lib buxgalteriya balansi va moliyaviy natijalar to'g'risidagi hisobotlar hisoblanadi. Yanada chuqurroq tahlil o'tkazish uchun "Audit Expert" dasturida qo'shimcha ma'lumotlardan: foydani taqsimlash, mol-mulk va qarzдорliklar to'g'risidagi ma'lumotlardan, shuningdek moliyaviy vaboshqaruv hisobining boshqa hisobotlaridan foydalanish imkoni mavjud bo'lib, ularni foydalanuvchining o'zi mustaqil belgilashi mumkin.



8-chizma. "Audit Expert" dasturida ma'lumotlarni tahliliy qayta ishlash

Yuqoridagi chizmada “Audit Expert” dasturida ma’lumotlarni tahliliy qayta ishlash keltirilgan. “Audit Expert” kiritilgan buxgalteriya balansi va moliyaviy natijalar to’g’risidagi hisobotlari ma’lumotlarini tahliliy jadvallarga tushiradi. Tizimning balans aktiv va passiv moddalarini qayta baholash va ularni yanada barqaror bo’lgan valyutaga o’tkazish imkoniyati mavjud.

“Audit Expert” tizimi faoliyati negizida bir nechta davr buxgalteriya hisobotlarini moliyaviy hisobotlarning xalqaro standartlariga mos keluvchi yagona taqqoslama ko’rsatkichlarga olib kelish tizimi yotadi. Bu kabi yondashuv dastur faoliyati natijalarini butun dunyoda tushunarli qilib, olingan natijalar asosida korxona moliyaviy holatiga baho berishga imkoniyat tug’diradi.

Auditorlar tomonidan parallel modellashtirish uchun maxsus dastur tayyorlanib, bu dastur tekshirilayotgan firma dasturining nazorat muolajalari va mantiqi bilan o’xshash bo’ladi. Tovar-moddiy zahiralar auditorlik dasturi yordamida haqiqiy ma’lumotlarni qayta ishlash natijalari shu ma’lumotlarni haqiqiy ustama tizimda qayta ishlash natijalari bilan taqqoslanadi. Buning uchun auditorlarning dasturlashtirish sohasida chuqur bilimga ega bo’lishi yoki xolis dasturchilarni ishga taklif qilishi zaruriy shart hisoblanadi. Umumiy tayinlangan dasturiy vositalar auditorlarga ma’lumotlarni qayta ishlashning real dasturiy tizimiga o’xshash tizimni yaratish, ayni bir ma’lumotlar faylidan foydalangan holda qayta ishlashni o’tkazish imkonini beradi. Bunday o’xshash tizimga auditor barcha zarur nazorat muolajalarini kiritishi mumkin. Parallel modellashtirish usulini qo’llash avvaliga yetarli darajada katta xarajatlarni talab qilishi mumkin, lekin bu usulning samaradorligi kompyuter texnikasi qo’llanilmay o’tkazilgan auditorlik tekshiruvi samaradorligidan, shuningdek nazorat ma’lumotlari usulining samaradorligidan ma’lum darajada yuqoridir.

Demak, bugungi raqobatbardosh iqtisodiyot sharoitida nafaqat tovar-moddiy zahiralar auditini, balki barcha audit jarayonini axborot texnologiyalaridan foydalanib amalga oshirish auditorlar ish sifatining yanada oshishiga, audit jarayonining xalqaro talablar darajasida takomillashuviga katta hissa qo’shadi.

XULOSA

Iqtisodiy isohotlarning chuqurlashuvi O'zbekistonda buxgalteriya hisobi va auditning yangicha me'zonlarini ishlab chiqish zaruriyatini vujudga keltiradi. Har qanday miqdoriy ko'rsatkichlar bo'yicha tekshirish hamda ular faoliyatini baholashda sifat ko'rsatkichlari orqali korxona rivojlanish yo'lini auditorlik baholash chog'ida tekshiriladigan dinamik aloqalar asosiga qurilgan baholarga va o'lchash usullariga asta-sekin o'tish lozim. Boshqacha aytganda, hozirgi vaqtda auditorlar va buxgalterlar oldida juda muhim vazifa – taraqqiyot yo'lini baholashning yangicha usullaridan foydalanib, yuqoridagi tasnif qilingan usullarga asoslangan holda, iqtisodiy axborotni kompyuter dasturlaridan foydalanib, hisob yuritish hamda auditorlik faoliyatini amalga oshirishning eng maqbul imkoniyatlarini vujudga keltiradilar.

Bugungi kunda barcha sohalarda bo'lgani kabi hisob vahisobot tizimida ham keng qamrovli islohotlar amalga oshirilmoqda, ayniqsa, tovar-moddiy zahiralari hisobi va auditini sohasida, shu jumladan, tovar-moddiy zahiralarni baholash va uning auditini tashkil etish mexanizmiga ham ta'sir etmoqda. Tovarmoddiy zahiralari hisobida boshqaruv va moliyaviy hisob ob'ektlarining aniq belgilab olinishi hamda uni tadqiq etish natijasida shunday xulosaga kelish mumkinki, ushbu masala yuzasidan aniq chegaralanish haligacha belgilanmagan. Bu nafaqat material xarajatlarida, balki hisobning boshqa ob'ektlarida ham ko'zga tashlanadi. Tovarmoddiy zahiralari hisobi va ularning auditini takomillashtirish yuzasidan yuqoridagi fikr hamda mulohazalarni umumlashtirgan holda quyidagi xulosalarga kelindi: xo'jalik faoliyati jarayonining yakuniy bosqichidan olinadigan tayyor mahsulotlarning tannarxidagi sarflangan xom-ashyo va materiallar ulushini imkoni boricha kamaytirish muhim o'rin tutadi, chunki, talab va taklifdan kelib chiqqan holda ularga o'rnatilgan baho mahsulotlarning xaridorgirlik darajasini belgilaydi. Ushbu muomalalar va talablardan kelib chiqqan holda ishlab chiqarishni tashkil qilayotganda tabiiy va moddiy resurslardan unumli foydalanish, ikkilamchi resurslarni hamda yondosh mahsulotlarni keng talab qilishi lozim.

Tovar-moddiy zahiralar hisobi va auditini tashkil etishda asosiy e'tiborni sub'ektga tegishli bo'lgan tovar-moddiy zahiralar, shu jumladan, yo'ldagi va qayta ishlashga berilgan, ishlanadigan, qayta ishlanadigan, ishlab chiqarish va boshqa xo'jalik maqsadlari uchun ishlatiladigan mehnat buyumlari, xom-ashyo va materiallar, aylanma mablag'larning tarkibi, miqdori, harakati, ularni tayyorlash, sotib olish, baholash va qayta baholash jarayonlari to'g'risidagi ma'lumotlarni umumlashtirishning tartib qoidalarini chuqur o'rganishga qaratish talab etiladi. O'rganish jarayonida tovar-moddiy zahiralarining tarkibi, holati, harakati, miqdori, sotib olinishi yoki ishlab chiqarilishi, baholash vaqayta baholash tartiblariga e'tibor berish lozim. Buxgalteriya hisobining ma'lumotlari o'zida mahsulotning tannarxini kamaytirish imkoniyatlarini tovar -moddiy boyliklardan unumli foydalanish, sarflar me'yorini pasaytirish, ularni talabga javob beradigan darajada saqlash, qo'riqlash va boshqalar to'g'risidagi ma'lumotlarni umumlashtirishi lozim. Shuningdek, korxonalarda tovar-moddiy zahiralar hisobiva auditini takomillashtirish yuzasidan bitiruv malakaviy ishi yakunida quyidagi takliflar va tavsiyalarni berib o'tishimiz mumkin:

1. Korxonalarda tovar-moddiy zahiralar hisobini tashkil etishning amaliy holati hamda uning qay darajada hisob tamoyillariga muvofiq kelishi o'rganildi.

2. Milliy iqtisodiyot korxonalari uchun tovar-moddiy zahiralarining to'g'rihisoga olinishi va uning auditini tashkil etishning ahamiyati hamda bu mavzuga oid muammolarning mohiyati ochib berildi, shuningdek bu sohaga oid xalqaro standartlar o'rganildi.

3. Tovar-moddiy zahiralar baholanishi va uning auditini tashkil etish bo'yicha ishlab chiqilgan xalqaro va milliy standartlar qiyosiy tahlil etildi.

4. Boshqaruv hisobi maqsadlarida moliyaviy hisobotlarda ko'rsatib o'tilgan moddalarni LIFO usulidan FIFO usuliga o'tkazish ko'rib o'tildi. Shu maqsadda 6-chizma taklif sifatida va moliyaviy hisobot moddalarini LIFO usulidan FIFO usuliga o'tkazish formulalari keltirib o'tildi.

5. O'zbekistonda nafaqat tovar-moddiy zahiralar auditini, balki barcha buxgalteriya bo'limlarni auditorlik tekshiruvidan o'tkazishda axborot texnologiyalarini qo'llash hamda bu orqali kamroq vaqt sarflab auditorlarning ish sifatini yanada oshirish bo'yicha tegishli xulosa va takliflar ishlab chiqildi.

Bitiruv malakaviy ishida ko'rilgan masalalar va takliflar o'rganilayotgan mavzuni yanada chuqurroq o'rganishni va takomillashtirishni taqozo etadi. O'ylaymizki, bu taklif va mulohazalar tovar-moddiy zahiralar hisobi va ularning auditini yo'lga qo'yish hamda takomillashtirishda muhim manba bo'lib xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

I. O'zbekiston Respublikasi qonunlari. O'zbekiston Respublikasi Prezident farmonlari va qarorlari, Vazirlar Mahkamasining qarorlari, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimovning asarlari

1. O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi.-T.: «O'zbekiston», 2012.
2. O'zbekiston Respublikasining Soliq Kodeksi. Rasmiy nashr- O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi.-T.: «Adolat », 2008 y.
3. O'zbekiston Respublikasining «Buxgalteriya hisobi to'g'risida» gi Qonuni. - Toshkent 1996 y. 30 avgust.
4. O'zbekiston Respublikasining «Auditorlik faoliyati to'g'risida» gi Qonuni (yangi tahriri) 2000 y. 26 may. (Mazkur Qonunga quyidagilarga muvofiq o'zgartirishlar kiritilgan: O'zR 13.12.2002 y. 447-II-son Qonuni, O'zR 04.04.2006 y. O'RQ-28-son Qonuni, O'zR 10.10.2006 y. O'RQ-59-son Qonuni, O'zR 17.09.2007 y. O'RQ-110-son Qonuni, O'zR 09.09.2009 y. O'RQ-216-son Qonuni asosida)
5. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2007 yil 4 apreldagi PQ-615-son Qaroriga ilova «Auditorlik tashkilotlari to'g'risida» Nizom.
6. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2007 yil 4 apreldagi PQ-615-son Qarori - «Auditorlik tashkilotlari faoliyatini yanada takomillashtirish hamda ular ko'rsatayotgan xizmatlar sifati uchun javobgarlikni oshirish to'g'risida».
7. Vazirlar Mahkamasining 2006 yil 16 oktabrdagi 215-son qaroriga 2-ilova «Korxonalaridagi ichki audit xizmati to'g'risida» Nizom.
8. Vazirlar Mahkamasining 1999 yil 5 fevraldagi «Mahsulot (ish, xizmat)larni ishlab chiqarish va sotish xarajatlari tarkibi hamda moliyaviy natijalarni shakllantirish tartibi to'g'risidagi Nizomni tasdiqlash to'g'risida»gi 54-sonli qarori. (O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2011 yil 30 dekabrda PQ-1675-sonli qarori asosidagi o'zgartirishlar bilan).

9. Karimov I.A. Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi, O'zbekiston sharoitida uni bartaraf etishning yo'llari va choralari. - T: «O'zbekiston», 2009.
10. Mamlakatimizni modernizatsiya qilish va kuchli fuqarolik jamiyati barpo etish - ustuvor maqsadimizdir. - Prezident Islom Karimovning O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi va Senatining qo'shma majlisidagi ma'ruzasi // Xalq so'zi, 2010 yil 28 yanvar.
11. Karimov I.A. Barcha reja va dasturlarimiz Vatanimiz taraqqiyotini yuksaltirish, xalqimiz farovonligini oshirishga xizmat qiladi. -T.: «O'zbekiston», 2011.
12. Karimov I.A. «O'zbekistonda ijtimoiy-iqtisodiy siyosatni amalga oshirishda kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning roli va ahamiyati». Xalqaro konferensiyaning ochilish marosimidagi nutq. T.: «O'zbekiston»,2012.
13. Karimov I.A. «Bosh maqsadimiz - keng ko'lamli islohotlar va modernizatsiya yo'lini qat'iyat bilan davom ettirish». 2012-yilda mamlakatimizni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish yakunlari hamda 2013-yilga mo'ljallangan iqtisodiy dasturning eng muhim ustuvor yo'nalishlariga bag'ishlangan Vazirlar Mahkamasining majlisidagi ma'ruza. 2013-yil 18-yanvar. T.: «O'zbekiston»,2013.

II. Asosiy va qo'shimcha adabiyotlar

14. «O'zbekiston Respublikasi Buxgalteriya hisobi milliy standartlari to'plami». T.: «Norma», 2010.
15. «Xo'jalik yurituvchi sub'yektlar moliyaviy-xo'jalik faoliyatining buxgalteriya hisobi schyotlari rejasi va uni qo'llash bo'yicha yo'riqnoma». 21-son BHMS. - T.: «Norma»,2010.
16. To'laxodjaeva M.M., Ilxomov SH.I., Axmadjonov K.B.va boshqalar. Audit, Darslik. I,II jild. O'z.R. Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti.-Toshkent: «NORMA», 2008.
17. Karimov A., Islomov F., Avloqulov A. Xalqaro audit tizimi. - T.: «Iqtisod-moliya», 2007.

18. Do'smurotov R.D., Fayziev SH.N. Audit. O'quv qo'llanma. I,II qism. - T.: «Iqtisod-moliya», 2008.
19. Karimov A.A. va boshq. Buxgalteriya hisobi. Oliy o'quv yurti talabalari uchun darslik. - Toshkent: «Sharq», 2004.
20. Gadoev E. va boshqalar. Buxgalter uchun amaliy qo'llanma. I,II jild. - T.: «Norma», 2010.
21. G'ulomova F.G'. «Buxgalteriya hisobini mustaqil o'rganish uchun qo'llanma». – T.: «Norma», 2010.
22. Сотиволдиев А.С., Абдувохидов Ф.Т., Сатывалдыев Д.А. Финансовый и управленческий учет. -Т.: «Iqtisod-moliya», 2012.
23. Джамбакиева Г. Финансовый учет. Учебное пособие. -Т.: «Iqtisod-moliya», 2012.
24. Астахов В.П. Бухгалтерский (финансовый) учет. Учебное пособие. 9-издание. –Москва, 2009.
25. Архарова З. П. МЕЖДУНАРОДНЫЕ СТАНДАРТЫ АУДИТА (МСА): Учебно-методический комплекс. – М.: «ЕАОИ», 2008.
26. Булыги Р.П. Аудит: учебник –М.: «ЮНИТИ – ДАНА», - 2009 г.
27. Ерофеева В.А., Пискунов В.А., Битюкова Т.И. Аудит: учебное пособие,. – 2-е изд. перераб. и доп. – М.: «Юрайт», Высшее образование, 2010.
28. Палий В. Международные стандарты учета и финансовой отчетности. Учебное пособие. – М.: «ИНФРА – М» , 2009 г.
29. Подольский В., Савин А. Сотникова Л. Международные и внутрифирменные стандарты аудиторской деятельности. Учебное пособие. – М.: «ИНФРА – М», 2010 г.
30. Суйц В. Аудит. Учебное пособие. – М.: “КНОРУС ”, 2010 г. – 168 ст.
31. Справочник аудитора. – Т.: Национальная ассоциации бухгалтеров и аудиторов Узбекистана. 2007.
32. Pany and Whittington. Auditing. 1999.

33. William C. Thomas. Auditing: theory and practice. Kent publishing company. 2001

III. Davriy nashrlar, statistik to'plamlar va hisobotlar

34. «Moliya» jurnali, 2010-2012 yillar
35. Soliq va bojxona xabarleri gazetasi. –T.:2013. Yanvar-mart oylari
36. Бухгалтерский учет. Журнал.- М.: 2012-2013 йиллар.

IV. Internet saytlari

<http://www.nao.gov.uk> (UK National Audit Office)

<http://www.iaa.org.uk>(The Institute of Internal Auditors-United Kingdom)

<http://www.iasc.org.uk>(International Accounting Standards Committee)

<http://mf.uz>

<http://www.soliq.uz>

<http://www.gaap.ru>

<http://www.accountingreforms.ru>

<http://www.ziyonet.uz>

<http://www.tfi.uz>

<http://www.lex.uz>

**TMZlar hisobini tashkil etish va ichki nazorat tizimini baholash bo'yicha
savolnoma**

№	Test savolining mazmuni	Javoblar		Izoh
		Ha	Yo'q	
1.	Tovar-moddiy zahiralarni saqlash va ishlatish joylari hisob registrida aks ettirilganmi?	√		
2.	Tovar-moddiy zahiralarni qoldiqlari normativga mosmi?		√	
3.	Tovar-moddiy zahiralarni hisobdan chiqarish bo'yicha komissiya tuzish to'g'risida buyruq mavjudmi?	√		
4.	Omborxona xo'jaligining tashkil etilishi va yong'inning oldini olish chora-tadbirlari talabga javob beradimi?	√		
5.	Tovar-moddiy zahiralarni saqlash uchun mas'ul shaxslar bilan to'liq moddiy javobgarlik to'g'risida shartnomalar tuzilganmi?		√	
6.	Korxonada tovar-moddiy zahiralarni hisobiga doir dastlabki hujjatlarning unifikatsiyalangan shakllari qo'llaniladimi?	√		To'liq emas
7.	Hisob siyosatida tovar-moddiy zahiralarni inventarizatsiya qilish usullari va muddatlari ko'rsatilganmi?		√	
8.	Inventarizatsiya o'tkazish va natijalarini rasmiylashtirish bo'yicha amaldagi me'yoriy hujjatlar mavjudmi?	√		
9.	Inventarizatsiya belgilangan muddatlarda o'tkazilganmi?		√	
10.	Tovar-moddiy zahiralarni oxirgi marta qachon inventarizatsiya qilingan?	√		2 yil oldin
11.	Inventarizatsiya natijalari hisobda aks ettirilganmi?		√	
12.	Tovar-moddiy zahiralarni hisobi bo'yicha hujjatlar aylanish reja-grafigi tuzilganmi?		√	
13.	Bosh buxgalter tomonidan hujjatlar aylanish reja-grafigiga rioya qilish ustidan nazorat amalga oshirilganmi?		√	
14.	Tovar-moddiy zahiralarni ob'yektlari yong'in va boshqa tabiiy ofatlardan sug'urta qilinganmi?	√		
15.	Tovar-moddiy zahiralarni turkumlanganmi?		√	
16.	Buxgalteriya xodimlari TMZni tabiiy kamayish me'yorlari to'g'risidagi hujjatlar bilan ta'minlanganmi?		√	
17.	Analitik hisob ma'lumotlari sintetik hisob registrlari bilan taqqoslanganmi?	√		Balans tuz-da
18.	Tovar-moddiy zahiralarni hisobdan chiqarish bo'yicha dalolatnomalar va boshqa hujjatlar rahbar tomonidan tasdiqlanganmi?	√		
19.	Transport-tayyorlov xarajatlarni hisobga olish va taqsimlash har oyda muntazam amalga oshirilganmi?		√	
20.	TMZni baholashning korxonada qo'llanilayotgan usuli 4-son BHMS va hisob siyosatiga mosmi?	√		

Tovar-moddiy zahiralarni auditorlik tekshiruvdan o'tkazishning umumiy rejasi

Tekshirilayotgan tashkilot: "Oliy nav" MCHJ

Audit davri: 2012-yil 1-yanvardan 2012-yil 31-dekabrigacha

Kishi-soatlar soni: 32

Auditorlik guruhi rahbari: B. Avezov

Auditorlik guruhi tarkibi: B. Avezov, I. Xoljigitov

Rejalashtirilayotgan auditorlik xatari: 4%

Rejalashtirilayotgan jiddiylik darajasi: 4%

№	Rejalashtirilayotgan ish turlari	O'tkazish davri (soat)	Bajaruvchi	Izohlar
1.	Tovar-moddiy zahiralarni kirimi bo'yicha amalga oshirilgan operatsiyalar auditi	4	I. Xoljigitov	
2.	Ombordagi tovar-moddiy zahiralarni harakatining analitik hisobi auditi	16	B. Avezov I. Xoljigitov	
3.	Tovar-moddiy zahiralardan foydalanish, ularning kamomadi, yo'qotish va o'g'irliklarni hisobdan chiqarish auditi	5	I. Xoljigitov	
4.	Tovar-moddiy zahiralarni yig'ma ma'lumotlari auditi	5	B. Avezov	
5.	Tovar-moddiy zahiralardan foydalanish tahlili	2	B. Avezov	

Auditorlik tashkiloti rahbari

B. Avezov

Auditorlik guruhi rahbari

B. Avezov

Tovar-moddiy zahiralarni auditorlik tekshiruvdan o'tkazish dasturi

Tekshirilayotgan tashkilot: "Oliy nav" MCHJ

Audit davri: 2012-yil 1-yanvardan 2012-yil 31-dekabrgacha

Kishi-soatlar soni: 32

Auditorlik guruhi rahbari: B. Avezov

Auditorlik guruhi tarkibi: B. Avezov, I. Xoljigitov

Rejalashtirilayotgan auditorlik xatari: 4%

Rejalashtirilayotgan jiddiylilik darajasi: 4%

№	Audit bo'limlari bo'yicha auditorlik tadbirlari ro'yxati	O'tkazish davri (soat)	Bajaruvchi	Auditorning ish hujjatlari
<i>1. Tovar-moddiy zahiralarni kirimi bo'yicha amalga oshirilgan operatsiyalar auditi</i>				
1.1	Oldi-sotdi shartnomasi bo'yicha xarid qilingan TMZlar bilan bog'liq muomalalarni tekshirish	2	I. Xoljigitov	Tushum vedemosti
1.2	Tekinga kelib tushgan TMZlar bilan bog'liq muomalalarni tekshirish	1	I. Xoljigitov	Tushum vedemosti
1.3	Boshqa asoslar bo'yicha kirim qilingan TMZlar bilan bog'liq muomalalarni tekshirish	1	I. Xoljigitov	Tushum vedemosti
<i>2. Ombordagi tovar-moddiy zahiralarni harakatining analitik hisobi auditi</i>				
2.1	Moddiy qiymatliklarni saqlash joylarini tekshirish (o'lcov asboblari, idishlar va boshqa saqlash buyumlarining haqiqatda mavjudligi)	2	B. Avezov	Materiallarni qabul qilish yo'riqnomasi, o'lchov asboblari-ning texnik pasporti, omborxona sanitariya kitobi
2.2	Moddiy qiymatliklar keltirilishi va chetga chiqarilishining boshqarish tizimini tashkil etilganligini tekshirish	2	I. Xoljigitov	Kirish va chiqishlarni ro'yxatga olish kitobi, qo'riqlash va ombor xodimlari haqida ma'lumot
2.3	Kirim qilingan TMZlarning to'liqligi va to'g'ri baholanganligini tekshirish	3	B. Avezov	Mol yetkazib beruvchilar bilan bog'liq hujjatlarni ichki hujjatlar bilan taqqoslash jadvallari
2.4	Omborxonadagi va buxgalteriyadagi	3	I. Xoljigitov	Aylanma vedemostlar, omborxona hisobi

	ma'lumotlarning bir-biriga mos kelishini tekshirish			kartochkalari
2.5	Tovar-moddiy zahiralarining to'liqligi va sifatini inventarizatsiyadan o'tkazish	6	B. Avezov I. Xoljigitov	Inventarizatsiya o'tkazish to'g'risida buyruq, hisob siyosati to'g'risida buyruq, inventarizatsiya dalolatnomalari
<i>3. Tovar-moddiy zahiralaridan foydalanish, ularning kamomadi, yo'qotish va o'g'irliklarni hisobdan chiqarish auditi</i>				
3.1	Moddiy qiymatliklar-ning ishlab chiqarishga va boshqa tomonga hisobdan chiqarilishini tekshirish	2	I. Xoljigitov	Materiallar chiqim hujjatlari, schyot-fakturalar
3.2	Materiallar qiymatidagi og'ishishlarni tayyor mahsulotlar tarkibiga hisobdan chiqarilishini tekshirish	2	I. Xoljigitov	Akt va boshqa material xarajatlarni hisobdan chiqarish hujjatlari
3.3	Materiallarning kamomadi, o'g'irlik va yo'qotishlarni hisobdan chiqarilishini tekshirish	1	I. Xoljigitov	O'g'irlik, kamomad va yo'qotishlarni hisobdan chiqarish dalolatnomalari
<i>4. Tovar-moddiy zahiralar yig'ma ma'lumotlari auditi</i>				
4.1	Analitik va sintetik hisob ma'lumotlarini tekshirish	2	B. Avezov	Material xarajatlarining yig'ma vedemosti, tugallanmagan ishlab chiqarish vedemosti, jurnal-order №10
4.2	Buxgalteriya registrlari va hisobotlaridagi ma'lumotlarni taqqoslash	1	B. Avezov	Buxgalteriya balansi, ishchi jadvallar, jurnal-order №10
4.3	Inventarizatsiya natijalarini taqqoslash	2	B. Avezov	TMZlarning schyotlar va guruhlar bo'yicha inventarizatsiya vedemosti
<i>5. Tovar-moddiy zahiralaridan foydalanish tahlili</i>				
5.1	Yil davomida foydalanilmayotgan materiallarni aniqlash	1	B. Avezov	Ombor hisobi kartochkalari, aylanma vedemostlar
5.2	Bir yil va undan ortiq vaqt davomida foydalanilmayotgan materiallarni aniqlash	1	B. Avezov	Ombor hisobi kartochkalari, aylanma vedemostlar

Auditorlik tashkiloti rahbari

B. Avezov

Auditorlik guruhi rahbari

B. Avezov